

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
TARIX FAKULTETI**

“Umumiy tarix” kafedrası

X.QURBONOV

“YORDAMCHI TARIX FANLARI” dan

Ma'ruzalar matni

Navoiy -2007 yil

Yordamchi tarix fanlari asoslari Oliy o'quv yurtlarining yangi o'quv rejasicha kiritilgan muhim fanlarning biridir. Tarix bo'yicha mutaxassis bo'lib chiquvchi har bir talaba bu fanni chuqur bilishi kerak. Hukumatimiz tomonidan chiqarilgan bir qator qarorlarda bu fanni davlat standartlari talaba asosida o'rganish tavsiya etilgan. Endilikda, bu fan sohalarini faqat g'arb mamlakatlari tarixini o'rganish bilan cheklanmasdan O'zbekiston xalqlari tarixi sahifalari bilan ham bog'liq holda o'rganish, voqea hodisalarga to'g'ri tasnif berishi asosiy vazifa bo'lib turibdi. Bu esa bo'ajak tarixchi talaba yoshlarning o'z xalqi tarixini yanada chuqur bilishiga, o'z kasbining mutaxassisi, komil inson bo'lib yetishishiga ko'maklashadi.

Ushbu ma'ruzalar matni "Tarix" ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabalari uchun mo'ljallangan.

Mas'ul: **G'.Temirov** –tarix fanlari doktori, professor

Tuzuvchi : **X. Qurbonov** – o'qituvchi

Taqrizchilar: **R.Tolibov** - tarix fanlari nomzodi, dotsent
T. Bo'tayeva – katta o'qituvchi

Mazkur ma'ruzalar matni 2007 yil "_____"
"Umumiy tarix" kafedrasida muhokama qilinib qo'llashga tavsiya etilgan.

K I R I S H

Yordamchi tarix fanlari tarix fanini o'rganishda yordamchi manbalar hisoblanadi. Bu fan tarix fanining yordamchi sohalari bo'lmish; poleografiya, diplomatika, genalogiya geroldika, sfragnetika, epigrafika, numizmatika, metrologiya va xronologiya buyruqlariga tayanadi. Shular asosida tarixiy voqea va hodisalarni mohiyatini haqqoniy, holisona yoritishga ko'maklashadi. Quyida shu yordamchi sohalarning vazifasi, maqsadi haqida to'xtalib o'tamiz.

- ❖ **Paleografiya** (grek. Paleo - qadimiy, grafo - yozaman: qadimiy yozuv) qadimgi qo'lyozma asarlarning qog'ozi muqovasi, siyohi, yozuvi va yozish usullarini tekshiradi.
- ❖ **Diplomatika** (grek. Diploma - ikki buklangan kog'oz, hujjat) rasmiy hujjatlarni o'rganish va tahlil qilish bilan shug'ullanadi.
- ❖ **Genealogiya** (Shajarashunoslik) «grekcha» urug'dosh, inson nasablarini kelib chiqishini tahlil qilish, o'rganish bilan shug'ullanadi. Shajara-arabcha (daraxt) inson nasablari va qon - qarindoshlik aloqalarining majmui.
- ❖ **Geroldika** (lotin. Gerold - gerb, belgi, nishon qadimiy gerblar) turli-tuman nishonlar va belgilarni (masalan qadimiy turkiy qabilalarning tamg'alarini o'rganadi.)
- ❖ **Sfragistika** (grek spragis - muhr) qadimiy muhrlar, podsholar, xonlar, amirlar va qozilarning muhrlari va ularning yozuvlarini tekshiradi.
- ❖ **Epigrafika** (grekcha epi - ustida, teppasida, grafo - yozuv, biron predmet ustidagi yozuv) tosh, metall buyumlar, yog'och va boshqa qattiq predmet ustiga uyib bitilgan qadimgi yozuvlarni o'rganadi.

- ❖ **Numizmatika** (grek. Numizma - pul) qadimiy pullarning kelib chiqishi, tarixi, material turi, shakli, vazni, yozuvlari va zarb etilgan joyi, vaqtini o'rganadi.
- ❖ **Metrologiya** (grek. Metron - o'lchov, logos - tushuncha bilim : o'lchovlar haqida tushuncha, o'tmishda turli mamlakat va xalqlar orasida amalda bo'lgan ogirlik, masofa va satih o'lchovlarini o'rganadi.
- ❖ **Xronologiya** (grek. Xronos - vaqt, logos - tushuncha bilim ; vaqt haqida tushuncha) hadimiy xalqlar va mamlakatlarda amalda bo'lgan yil hisobi va taqvim (kalendarlar) ni o'rganuvchi soha.
- ❖ **Toponimika** – qadimgi va tarixiy joy nomlarini, ularning ma'no-mazmunini tadqiq qiluvchi fan sohasi.
- ❖ **Kartografiya** – qadimiy, tarixiy, siyosiy, iqtisodiy, tabiiy, harbiy, dengiz, mahfiy va turli xaritalarni va xaritashunoslik tarixini o'rganuvchi fan sohasi.
- ❖ **Onomastika** - (grekcha so'z bo'lib «onoma-ism, nom» ma'nosini anglatadi.) tarixiy ismlar, tarixiy joy atamalari, qadimgi havonlar nomlari, osmon jismlarining nomlari, xadolar nomlari va boshqalarni o'rganuvchi soha.
- ❖ **Lingvistika** – qadimgi va tarixiy xalqlar, elatlar, millatlar tillarini o'rganuvchi fan sohasi.
- ❖ **Kriptografiya** – mahfiy (yashirin) yozuvlarni o'rganuvchi fan sohasi.
- ❖ **Этнография** – qadimgi va tarixiy xalqlar, millatlar va elatlarning kelib chiqishi, tarixi, madaniyati, urf-odatlarini, an'ana va marosimlarini o'rganuvchi fan sohasi.

1. Mavzu: XRONOLOGIYA (vaqtini aniqlash) (4 coar)

Reja:

1. Xronologiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalari
2. G'arb va Sharq kalendarlari
3. Hijriy va zamonaviy yil hisobi
4. Mo'chal hisobi

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T. "O'zbekiston" 2003.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. "Sharq" 1998.
3. Введение в специальные исторические дисциплины МГУ 1990
4. Каменцева Е.И. Хронология. Москва 1982 год.

Qadimgi zamonlardan boshlab odamlar vaqtni aniqlashga va shunga qarab o'z faoliyatlarini moslashtirishga harakat qilganlar. Grek filosofi Aristotel (er avv. 384-322) yozgan edi. «Tabiatdagi ma'lum bo'lmagan narsalardan biri bu vaqtdir, zero vaqt nima, uni qanday boshqarish mumkin buni hech kim bilmaydi. Darhaqiqat, er avv davr, sivilizatsiyalarning paydo bo'lishi, shahar davlatlarning yilnomalari to'g'risida biz ham to'la ma'lumotlarga ega emasmiz.

Xronologiya so'zi grekcha so'z xronos-vaqt, logos - so'z, o'rganish aniqrog'i vaqt haqida so'z, o'rganish ma'nosini anglatadi. Xronologiya fan sifatida ikkiga bo'lib o'rganilad:

1. Astronomik (matematik) xronologiya. Bu aniq astronomik vaqtni aniqlash, astronomik hodisalar va fazoviy jismlar harakatlari vaqtini aniqlaydi.
2. Tarixiy- qadimgi va hozirgi xalq va elatlarning turli taqvim va kalendarlarining shakllanishini va o'zgarish qonuniyatlarini aniqlaydi.

Xronologiya Sharqning qadimgi davlatlarida vujudga kelgan. Uning rivojlanishi qadimgi Misr, Gretsiya va Rimda kuzatilgan. Qadimgi xronologiya bilan ilk shug'ullangan olimlar gerek olimlaridan Eratosfen, Ptolomey, Kallip, Rim mutafakkirlaridan Varronlarni kiritishimiz mumkin.

Eratosfen Kirenskiy (er avv 276-194) Misrning Aleksandriya va Afina kutubxonasida ishlagan. Qadimgi xronologiya haqidagi ishlar unga oiddir. Klavdiy Ptolomeyning «Geografiya» asari o'zida boy tarixiy manbalarni

mujassamlashtirgan. U «Podsholarning xronologik qonuni»ni tuzgan. Rimlik Mark Terensiy Varrdn (er avv 116-27 yillar) xronologiya faniga katta hissa qo'shdi. U Rimda konsul vazifasida ishlagan. Qomusiy olim bo'Mgan. 600 dan ziyot kitob yozgan.

Xronologiyaning keyingi istiqboli o'rta asrlarda yuz berdi. Sharqning qomusiy olirni Abu Rayhon Beruniy, ingliz solnomachisi Veda Dostopochtenniy katta hissa qo'shgan.

XVI asrda xronologiya fan sifatida vujudga keladi. XVII asrda fransuz olimi Jozef Skaliger (1540-1609 y) tarixiy xronologiyaga sistematzasiyani olib kirdi, tarjima usullarini ishlab chiqardi. Bu solnomalarni chuqur o'rganish, vaqtni aniqlashga yordam beradi.Uning “Vaqt hisobining o'zgarishi” (1583 y) va “Vaqtlar xazinası” (1606y) kabi buyuk asarlari astranomik va tarixiy xronologiya masalalarini tadqiq qilishda muhim manbalardan hisoblanadi.

XVIII asrda Skaliger ma'lumotlari Frantsuz olimlari Klemense, d'Antina, Dyuranning “Vaqtni aniqlash san'ati” nomli 44 tomdan iborat asarlar to'plami yaratildi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ilmiy xronologiya o'zining rivojlangan cho'qqisiga ko'tarildi. Bu davrda nemis astronomi va xronologi Xristian – Lyudvig Ideler, F.Ginsel, X.Grotofend, F.Ryulya fransuz olimlari A.Jiri rus olimlari S.I.Seleshnikova, I.A.Klimishina, E.I.Kamenseva v boshqalar ham xronologi fanlariga munosib hissalarini qo'shganlar.

Qadim zamonlardan buyon odamlar ilk jamiyat rivojlanish bosqichlarida vaqt hisobi kun va tunning almashishini kuzatib vaqtni belgilashga harakat qilganlar. Bu zaruriy ehtiyoj edi. Masalan, Nil daryosi bo'yida yashagan xalqlar kun, oy, yil va fasllarni bilishlari shart bo'lgan. Shu bilimga tayanib daryoning ko'tarilishi, suv bosishi yoki qay paytda don ekish, urish lozimligini bilishlari shart bo'lgan. Shunga ko'ra kalendarlar ishlab chiqilgan. Tarixdan tabiat hodisalari bilan bogMiq 3 turdagi kalendar mavjud. Oy kalendari, Oy - quyosh kalendari, Quyosh kalendari.

Kalendar lotincha “qarz daftari” ma'nosini anglatadi Qadimgi Rimda olingan qarz yuzasidan har yangi oyning birinchi kunida foiz to'langan. Shunga qarab kalendarlar oy, oy-quyosh va quyosh kalendariga bo'lingan

1. Oy kalendari faqat oy fazasi o'zgarishi bilan belgilangan. Yangi oyning chiqishi 29 yoki 30 sutka davom etadi. 12 oy yilni tashkil qiladi. Bir yil 354 kunni tashkil qiladi. Oy kalendari tabiat xodisalarini har yili 2 kunga oldinga suradi.

2.Oy - quyosh kalendari. Ushbu kalendar oy fazasi almashuvi va quyoshning yillik harakatiga bogMiq. Har 19 yildan 12 yili 12

qamariy oydan iborat. 7 yil esa 13 qamariy oyidan iborat bo'ladi. Vavilon, Xitoy, Iudiya, Gresiya va Rimda qo'llanilgan.

3. Quyosh kalendari. U asosan quyoshning yillik harakati asosida tuziladi. Bunda yil 12 oydan iborat bo'lib, 365 kundan iborat. Qadimgi Misr va Hindistonda amalda bo'lgan.

Agar hozirgi fanimiz erishgan yutuqlar asosida vaqt sanasini belgilasak. **TROPIK YIL - 365 kun 5 soat, 48 minut, 46,1 sekundni (soniyani)** tashkil qiladi. Qadimda xalqlar bu vaqt sanasini qanday belgilashgan?

Misr kalendari. Bu kalendar eng qadimgi kalendar hisoblanib unga eramizdan oldingi XVIII asrda asos solingan (eramizgacha taxminan 4 ming yillikda). Bu kalendar turli davrlarda turlicha shakllangan. Misr kalendari quyosh kalendari edi. Bunda yil 360 keyin 365 kun hisoblangan Eramizdan oldingi 238 yilda bar to'rtinchi yilni 365 kun emas 366 kun deb hisoblangan. Qadimgi Mirsda Kohinlar eng yorug' yulduz Sirusning erta tongda birinchi ko'rinishi bilan Nil daryosining toshishi 22 iyunga to'g'ri kelishini aniqlab, shu asosda Misr kalendarini yaratdilar. Bu kalendar bo'yicha (bir oy 30 kundan hisoblanib yil oxiriga qo'shimcha yana 5 kun kiritilgan edi. Misr taqvimi tropik yildan taxminan 6 soat qisqa *g' bo'lgani uchun yil boshi oldinga surilib har $365 * 4 + 1460$ yilda birinchi boshlang'ich vaqtiga keladi. Har 4 yilda yil boshlanishi 1 kunga o'zgargan. Ammo Misrliklar nimagadir kabisa yilini hisobga kiritmaganlar. Shunga qaramay yilnomalar vatani qadimgi Rim emas, Misr hisoblanadi. Qadimgi Misr kalendari oylari - tot, faofiy, amir, hoyak, tibi. mehr, famonot, farmuti, paxox, pauni, apifi, mezoriy (ular eramizdan avvalgi VI-V asrlarda qo'llangan).

Xitoy kalendari. Bu kalendar oy-quyosh kalendari bo'lib unda ham tropik yil yana oylar bilan bog'langan. Eramizdan oldingi III asrdagi «Chjuansoy kalendariga muvofiq yilning o'rtacha uzunligi 365,25 kun bo'lgan. Bu oy-quyosh kalendarining har 19 yildan 12 tasi 12 oyg' 7 tasi 13 oydan iborat bo'lgan. Yahudiylar hozir ham bundan foydalanadilar.

Hind kalendari. Yil 365 kun bo'lib, yil 12 apreldan boshlangan. Oy - quyosh kalendaridan foylanganlar. Ba'zan, turli davrlarda oylarga kunlar qo'shib turgan. 1952 yil 25 martda Gregoryan kalendarini qabul qilishgan. Eng muhimi boshqa xalqlarga nisbatdan yilni 6 mavsumga (faslga) bo'lishgan: bahor, yoz, yomg'ir oyi, kuz, kechki kuz, qish.

Mayalarning qadimgi kalendari. Mustamlakalarga qadar Amerikada bir necha kalendarlaridan foydalanishgan. Mayalarda oy va quyosh kalendari mavjud bo'lgan. Ular eramizning I asrida paydo bo'lgan.

Quyosh kalendariga ko'ra yil 365-366 kun bo'lib, 18 oyga bo'lingan. Har bir oy 20 kunga bo'lingan. Har yili oxirida oxirgi oyga 5 kun qo'shimcha qo'shilgan. 13 kunlik hafta qabul qilingan. Oylar qishloq hujaligi ishlari bilan bog'lik nomlar bilan atalgan. Keyinchalik Mayalarning quyosh kalendarini asteklar tomonidan qabul qilingan. Ularda oy kalendari mavjud bo'lgan. Oylar 29 yoki 30 kundan iborat bo'lgan.

Iudev kalendari. Ov - quyosh kalendari eramizdan avvalgi VI-VII asrlarda joriy qilingan. Yil 365 kun iborat bo'lgan. Oylar 12 oydan iborat bo'lib, 30 yoki 29 kundan iborat bo'lgan. Har 19 yilda 13-oy qo'shilgan. U yilning 6- oyini oxirida qo'shilgan (bu oy adar deb atalgan). Yillar boshi o'zgarib turgan. 1965 yilda 5726 iudey yili - 27 sentabr, 1966 yilda 15 sentabr, 1967 yilda 5 oktabrda boshlangan.

Qadimgi Arman va Gruzin kalendari. Qadimgi Arman kalendari VII asrda Misr kalendari asosida yaratilgan. Yil 12 oydan (navsardi, chori, saxmi, tre, kxalos, lexekani, areg, axikani, marori, agatu, ayti, xrotitixs) oy esa 30 kundan iborat bo'lib, qo'shimcha 5 kun yil oxirida qo'shilgan. Yil hisobi 11 iyul 552 yildan belgilangan. Har 4 yilda 1 kun qo'shilgan. Bu kalendar Yulian kalendari bilan mos. XV-XVI asrlarda Armanistondan Yulian kalendariga o'tilgan.

Gruzin kalendari ham xuddi shunday. Yulian kalendariga mos.

Rusda ham vaqt xisobi to xristianlik qabul qilinguncha qadar oy-quyosh kalendari asosida bo'lib, oylar slavyan tillarida nomlangan. X asrda rusda xristianlik qabul qilish munosabati bilan Yulian kalendariga o'tilgan. 7 kunlik haftaga o'tilgan. 1492 yil cherkov an'alariga ko'ra yil boshi 1 sentabr bo'lgan. 1699 yil 15 dekabrda Pyotr I farmoniga ko'ra yil boshi etib 1 yanvar belgilangan.

Yulian kalendari. Er av VIII asr o'rtalarida qadimgi Rimda 10 oylik kalendar tipidan foydalanishgan.

1. Martius (urush xudosining nomi Mars nomi bilan) 31
2. Aprilis (daraxt gullashi, ochmoq ma'nosida) 29
3. Mayus (rangli gullarning ochilishi) 31
4. Iyunus (Yupiterni rafiqasi, uni nomiga qo'yilgan) 29
5. Kventilis 31
6. Sekstilis 29
7. September 29
8. Oktober 31
9. November 29
10. Desember 29.

Yil 1martdan boshlangan. 4 oyi 31 kun, 6 tasi 30 kun. Jami yil 304 kundan iborat bo'lgan.

Er av VII asrda yana 2 oy qo'shiladi. 11-yanuarus (ikki boshli dehqonchilik xudosi nomiga, 12-febrarus (xudo yo'lida gunohlardan tozalanmoq diniy marosimi). Yil noto'g'ri edi. Shu sababli har bir yildan keyin 22 yoki 23 kun qo'shilgan. Ya'ni fevral oyini cTrtasiga qo'shilgan.

Eramizdan avvalgi 46 - yilda Rim konsuli Yuliy Sezar Misr astronomi Sozigenning taklifi bilan Misr kalendaridagi yil hisobini tuzatish uchun isloh cTtkazdi. Sozigen tropik yilning taxminan 365,25 kunligini bilib, bir yilni 12 oyga bo'ladi. Yil boshini 1 yanvarga kcTchiradi. Toq oylari 31 kun, juft oylar esa 30 kundan, fevral oyini oddiy yili 28 kun , kabisa yili 29 kun qilib belgilandi. Park kam, 11 minut 4 sekun ortiq , tropik yildan. Oylar quyidagilar:

1. Yanuarus - 31
2. Febrarius - 28 (29)
3. Yunus-30
4. Kvintilis (yulius)-31
5. November-30
6. Desember - 31

Bu kalendar er.avv 45 yilning 1 yanvaridan boshlab Yulian kalendar nomi bilan atay boshlangan.

Grigoryan kalendar. Yulian kalendar tropik yildan 11 minut 14 sekun ortiq. Bu ortiqcha vaqt yig'ilib 128 yilda 1 sutkani tashkil qiladi. 400 yilda 3 sutka. Bu farq XVI asrga kelib 10 kunni tashkil qiladi. Bahorgi teng kunlik 21 martaga emas 11 martga to'g'ri kelib qoladi. 21 mart 11 martga kelib qolgan. Shuning uchun papa Grigoriy - XII italiyalik shifokor Luiji - Lilioning 1576 yilda taklif etgan loyihasiga suyanib, kalendar o'zgartirish kiritadi. 1582 yil 4 oktabr 5 oktabr deb emas 15 oktabr deyishga farmon berildi. Shu bilan 1200 yildagi xato tuzatiladi. Grigoriydagi xatolik 3300 yilda 1 sutka yoki 4000 yildan 1 sutka chiqarib tashlansa xatolik bir - yoki 0,22 sutkadan iborat bo'ljb, 18200 yildagina 1 sutkaga yetadi. Har 400 yilda 3 kun chiqarib tashlanadigan boMdi. 1700 yillarda Daniya, Norvegiya , Germaniya, 1752 yil Angliya, 1753 yil Shvesiya, Filayandiya, 1812 yil Shveysariya, 1911 yil Xitoy va Bolqon davlatlari. 1918 yil 26 yanvarda Rossiyada qabul qilindi. 1927 yil Turkiya, 1928 yilda Misrda qabul qilingan.

Yazdigard kalendar. O'rta Osiyo va Eron yerlarida zardushtiylik dini shakllangan ular ham o'z g'oyalariga mos kalendar

ijod qilishdi. Uning oxirgi islohi Sosoniylar sulolasidan bo'lgan Yazdigard III davrida amalga oshgan. Kalendar shuning nomi bilan ataladi.

Bu kalendar 365 kunlik quyosh kalendari bo'lib 12 oyi 30 kun (360 kun) qolgan 5 kun esa 21 martda kiradigan yangi yil oldidan alohida hisoblangan. Bu oylarning qadimgi nomi «Avesto»da quyidagicha :

1. Fravashi (Farvardin)
2. Ashi Vaxishta (Ordibexesht)
3. Xorvatot (Xurdodot)
4. Tishtiriya (Tir)
5. Amerstot (Murdodot)
6. Xishatra varya (Shaxrevar)
7. Mitra (Mexr)
8. Apu (Obon)
9. Odar (Ozar)
10. Dotush (Dey)
11. Voxu manox (Baxmon)
12. Spenti omoti (Esfand)

Hozirgi kunda bunga Eron, Pokiston, Hindistonda yashayotgan 130 mingga yaqin zardushtiylar amal qiladilar.

Musulmon kalendari. Muhammad payg'ambar kalendari. Muxammad paygambar Makkadan Madinaga kuchgan yildan boshlanadi. 622 yil 16 iyul juma kuni.

Oy kalendari. **Qamariy yil** deb ham hisoblanadi. Yilning 1.3.5. 7. 9.11. 30 kundan, jufti 29 kun.

1. Muharram (Ashur)-30 (Muqaddas, urushlar ta'qiqlangan)
2. Safar (Safar) -28 (shu oyda kasallik tarqalgan-yuzlari sarg'aygan)
3. Rabi al avval (Mavlud)-30 (bahor)
4. Rabi al axir -28 (yomg'ir yog'gan, daraxt barglari tushgan)
5. Jamodilavval -30 (kish fasliga to'g'ri keladi)
6. Jamodiloxir -28 (qish fasli)
7. Rajab (Rajab) - 30 (urushdan saqlangan, bexayotirlik)
8. Sha'bon (Borot) -28 (ajralish. Ayrimlari islomni qabul kilmagan)
9. Ramazon (Ro'za) -30 (oyning issiq kuni, kam ovqat yeyishgan)
10. Shavval (Hayit)-28 (hech qayerga ko'chmaganlar)
11. Zul- ka'da (Ora)-30 (faqat uyda o'tirish lozim bo'lgan)
12. Zul - hijja (Qurbon) -28-30 (Makkani ziyorat qilish. Qurbonlik)

Haftaning juma kuni bayram bo'lgan. Sha'bon oyini 15 kuni xudodan vahiy kelib, uning kelgusi yilda o'limini xabar qilgan.

Ramazonning 27 kechasi «Qur'on» nozil bo'lgan. Ramazonda roza tutilgan. 1-3 shavvalda O'raza bayrami, 70 kundan so'ng Zulhijjada - Qurbon hayiti o'tkaz'ilgan. Muharramda (Ashur) -shialar imomi Xusaynni xotira sifatida eslashgan, shu oyni 10 kunida rabbida 16-15 iyul kunida Muhammad payg'ambarni safari yodga olingan.

Yil 354 kun kabisa 355 kun deb olingan. Har 30 yilda 11-kun, 13 sekundni tashkil qiladi. 30 yilning 11-yili kabisa - 355, 19-yili oddiy 354 kundur.

Umar Hayyom kalendari. Umar Hayyom 1074 yili do'sti Nizom ul - Mulknini taklifi bilan Bog'dodga boradi. U yerdagi «Nizomiya» akademiyasining atoqli munajjimlariga rahbarlik qiladi. Bu kalendar bo'yicha 33 yilda 8 ta kabisa yili keladi va yilning uzunligi 365 kun 5 soat 49 minut 5,5 sekunda teng 1079 yil 16 martdan boshlab Eronda qabul qilindi va hozirgacha Eron va Afg'onistonda qo'llanib kelmoqda. Yangi yilni 1 kuni Hamal (Navruz) hisoblanadi. Xijriy shamsiy oylar doimo yilning ma'lum bir vaqtida keladi.

1. Hamal (kuy)- 31
2. Savr (sigir) - 31
3. Javzo (egizak qiz)-31
4. Saraton (qisqichbaqa) - 31
5. Sunbula (boshqoq)-31
6. Asad (arslon) - 31
7. Mezon (tarozi) - 30
8. Aqrab (chayon) - 30
9. Qavs(yoy)-30
10. Jady(tog' echkisi)-30
11. Dalv(kovga)-30
12. Hut(baliq)-29-30

Bu kalendar «Zij Malikshoh» deb ham atalgan. Kalendar 4500 yilda 1 sutka xato qiladi.

XVIII asrning oxiridagi Buyuk Fransuz inqilobi kalendari.

Ushbu kalendar 1793 yil 5 oktabrda Milliy Konvent qaroriga qo'ra qabul qilingan ya'ni Fransiya Respublika deb e'lon qilingan kundan (1792 y 21 sentabr). Yil oylari 30 kundan iborat bo'lib, 12 oyni tashkil qilgan. Yil oxiriga yana 5 yoki 6 kun qo'shilgan. Oylar tabiat mavsumi xodisalari bilan bog'liq bo'lgan. 1806 yil 1 yanvarda Napoleon Respublika kalendarini bekor qiladi va Grigoryan kalendari joriy qilinadi.

Kalendar islohatidagi loyihalar. 1 va II jahon urushlari davrida Millatlar ligasi shu islohotlar bilan shug'ullangan. Keyinroq BMT shu

masala bilan shug'ullanadi. Loyihaning asosiy maqsadi 7 kunlikni (yagonaligini) ishlab chiqishi edi. Mashhur fizik proffesor Mad Nak Sak boshchiligida Hindistonda milliy qo'mita tuzilib, uning loyihasi Yevropa mamlakatlari tomonidan ma'qullandi. Butunjahon kalendari bo'yicha yil 91 kunlik choraklarga bo'lingan, uning 1 oyi 31 kun qolganlari 30 kundan iborat edi. Har bir chorak 13 haftadan iborat, 4 chorak 364 kun bo'Madi. Ortiqcha 1 kun xalqlar o'rtasida Butunjahon tinchlik bayrami deb e'lon qilinadigan bo'ldi, uni yil oxirida yangi yildan oldin qo'yish taklif etildi. Kabisa yiliga yana 1 kun ortiqcha bo'Mib, uni ham xalqaro bayram kuni deb e'lon qilish taklif etildi. Butunjahon kalendarida 7 kunlik hafta 12 oylik yil hisobi saqlangan. Bu loyihaga ko'ra yangi yil faqat yakshanba kuniga to'g'ri keladi. Lekin bu loyihani AQSH va diniy tashkilotlar qo'llab - quvvatlamadi.

Eralar. Eralar yil hisobi. Tarixchi olimlar manbalarni tadqiq etishda turlicha sanalar tizimiga duch keladilar. CKz - o'zidan ma'lumki, bu hozirgi yil hisobi bilan to'g'ri kelishi kerak. XVI asr oxirida fransuz olimi J.Skaleger (1540-1609) o'zining yil hisobi tizimini ishlab chiqdi. Bunga ko'ra yil, asr, ming yillikdan qat'i nazar tartib bilan nomerlandi. Nomer 1 kun deb Skaleger bir vaqtda boshlangan 19 yillik oy va 28 yillik quyoshli-hafta kunini anilaydigan sikllarga va eramizgacha 1713 yil 1 yanvarni oladi, Skaleger eras! sanalarning oddiy tarjimai uchun juda qulaydir. Era deb ma'lum bir tarixiy yoki mifalogik yildan boshlanadigan yil hisobiga aytiladi. Masalan : eralar qadimgi Misrda har bir firavn taxtga chiqishidan boshlangan. Qadimgi Rimda er av 754 yildan Rimga asos solgan Romulni nomi bilan bogliq, keyinchalik imperator Dialektian davlatni boshqarishidan keyin yangi era er av 284 yil 29-avgustdan boshlangan.

Qadimgi Xitoyda era er av 2637 yildan Xuan Di sulolasidan boshlangan.

Qadimgi Hindistonda er av 78 yil Saka davridan boshlanadi.

Ko'plab davlatlarda eralar ma'lum bir davrda yer qimirlash yoki boshliklarning taxt tepasiga kelishidan boshlangan.

Ba'zi eralar dunyoning yaratilishidan boshlangan.

1. Yahudiy erasi uchun er av 3761 yil
2. Vizantiyaliklar uchun er av 5508 yil
3. Musulmonlar uchun erav 622 yil 16 iyun Hozirgi biz amal qilib kelayotgan millodiy yil esa Iso payg'ambarning tug'ilgan kunidan 525 yil 25 dekabrda boshlanadi (taxminan mil av I asr o'rtalari) . Hozirda eralar yil hisobi

Skaleger jadvali bo'yicha hisoblanadi.

Zamonaviy yil hisobi.

Xozirda Iso payg'ambar tug'ilgan yil yangi yil hisobi uchun asos qilib olingan. Mana oradan 2007 yil o'tib bormoqda. Bu XXI asr demakdir. Iso tug'ilgan avvalgi yillarni «milloddan avval», undan keyingi yillarni «milodimizning» deb beramiz. Eramizdan avvalgi sanalar kattadan kichikka, milodimiz sanalari esa kichikdan kattaga qarab sanalar hisoblanadi.

Tarixda yil hisobi qanday yuritiladi. Misol keltiramiz ! Insonlar mil aw VIII ming yillikdan beri dehqonchilik bilan shug'ullanib kelmoqdalar. Xozir esa 2007 yil. Shunday ekan dehqonchilik paydo bo'Iganiga qancha bo'ldig' Buni aniqlash uchun mil aw o'tgan 8 ming yilga, millodning 2 ming yilini qo'shamiz. Demak, dehqonchilik paydo bo'Iganiga 10 ming yil bo'lgan.

Musulmonlar hiiriy vil hisobi.

Milodning 622 yilida (16 iyun) Muxammad payg'ambar (SAV) Makka shahridan Madinaga ko'chgan. (Arabcha ko'chib o'tish - hijrat deb atalgan).

Hijriy yil hisobining o'zi 2 ga - hijriy qamariya (oy) va hijriy shamsiya (quyosh)ga bo'linadi. Qamariya oy yili bo'yicha yil hisobi milodning 622 yil 16 iyunidan boshlangan. Shu sana musulmon olamida 1 - yilning boshlanishi deb qabul qilingan. Hijriy yil 12 oydan iborat. Biroq, bu yil hisobida 1 oy 29,5 kundan, 1 yil esa, 354 kundan iborat. (biz amal qilayotgan yil hisobi esa 365-366 kundan iborat). Hijriy yil hisobida toq oylar 30 kun, juft oylar 29 kundan iborat. Biz amal qilayotgan yil hisobi bo'yicha farqlar 10-12 kunni tashkil qiladi.

1. Hijriy yillarni millodiy yilga aylantirish. Masalan:

M-622

$$M = Hq - \frac{\quad}{33} + 622$$

$$M = 1427 - 42 + 622 = 2007$$

2. Milodiy yilni hijriy qamariy yilga aylantirish. Masalan :

$$Hq = 2007 - 622 + 2007 - 622 / 33$$

$$Hq = 1385 + 42$$

$$Hq = 1427$$

3. Milodiy yilni hijriy shamsiy yilga aylantirish. Masalan :

H sh = M-622

H sh = 2007-622

H sh = 1385

Mo'chal hisobi

Sichqon	1984	1996	2008	2020	2032	2044	2056
Sigir	1985	1997	2009	2021	2033	2045	2057
Yo'lbars	1986	1998	2010	2022	2034	2046	2058
Quyov	1987	1999	2011	2023	2035	2047	2059
Baliq	1988	2000	2012	2024	2036	2048	2060
Ilon	1989	2001	2013	2025	2037	2049	2061
Ot	1990	2002	2014	2026	2038	2050	2062
Qo'y	1991	2003	2015	2027	2039	2051	2063
Maymun	1992	2004	2016	2028	2040	2052	2064
Tovuq	1993	2005	2017	2029	2041	2053	2065
It	1994	2006	2018	2030	2042	2054	2066
To'ng'iz	1995	2007	2019	2031	2043	2055	2067

2. Mavzu: NUMIZMATIKA – YORDAMCHI TARIX FANI SIFATIDA (6 soat)

Re j a:

- 1. Numuzmatika fanining predmeti, maqsadi va vazifalari**
- 2. Ilk va o'rta asrlarda Yevropa tangalari**
- 3. Ilk va o'rta asrlarda O'rta Osiyo tangalari**
- 4. Zamonaviy tangalar va pullar**

ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov.«Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q». T. «Sharq» 1998.
2. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. T. "Sharq" 2001 .
3. Беляков А.С. Нумизматика. Москва. МГУ 1990 год.
4. Введение в специальные исторические дисциплины.М.МГУ 1990
5. Ртвеладзе Э. Древние монеты Средней Азии.
6. Shoniyo'zov K. "O'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi"
T. "Sharq"2001 .
7. Фенглер.Х., Унгер В. Словар нумизмата . М. 1982 г.

Pul-tovar qiymatini muomila vositasini jamg'arish, to'lov, jahon pullari vazifasini bajaradi.

Tarix sahnasida yuzaga kelgan har qanday davlat pul muomilasiz o'z davlatini boshqara olmagan, albatta. To'g'ri dastlab tovar o'rniga tovar almashtirilgan lekin keyinchalik tanga pullar ishlatilgan. Chunki jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi savdoni o'sishi, pulga bo'lgan zaruriyatni keltirib chiqaradi. Faqat davlat boshliqlarigina tanga chiqarish huquqiga ega edi.

Tanga – bu aniq ko'rinishga keltirilgan, og'irlikka, sifatli tarkibga, qiymatga va qadrga ega bo'lgan metall qotishmadir.

Tanga – iqtisodiy hayotda tovar-pul munosabatlarini tartibga soladi. Tarixiy taraqqiyot natijasida kishilar xayotida tangalar va pullar kata axamiyatga ega bulgan. Kadimda metall tangalar bulmasada, kishilar tanga urniga turli tovarlar, jismlardan (xayvonlar, takinchoklar, metall kurollar, kiyimlar, xatto ismlar) tovar ayirboshlangan.

Numizmatika – lotincha "numisma" suzidan olingan bo'lib, «tangalar haqidagi fan» ma'nosini anglatadi.

Bu fan tangalarning zarb qilinishi. uning tasvirlari, undagi yozuvlar,

qiymati, kim tomonidan zarb qilinganligi, og'irligi, qanday qotishmadan, metallardan tayyorlanganligi, uning ahamiyati va vazifalarini o'rganadi. Bu fan Yordamchi tarix fanlaridan biri bo'lib tarix zarvaraqlarini yoritishda katta yordam beradi.

Tanga qadimgi Rim xudosi Yunona Moneta nomi bilan bog'liqligi ta'kidlanadi. Moneta so'zi - ogohlantiraman, saqlayman, o'zgartiraman ma'nolarini anglatadi. Afsonaga ko'ra Rim ilohi Yunona kishilarni bp'lajak zilziladan ogohlantirgan va shu sababli uning sharafiga Kapitoliy tepaligida unga atab mehrob (Xram) qurganlar. Eramizdan avvalgi IV asr ikkinchi yarmida bu erda Rim pul-mis tangalari ishlab chiqarish ustaxonasi ishga tushirilgan. Bu tangalar oldi qismida ayol ma'buda, orqa tomonida esa «Moneta» so'zi yozilgan dinor edi.

«Bilishimizcha...lidiyaliklar eng birinchi bo'lib tanga zarb etishgan hamda oltin va kumush tangalarni muomalaga kiritishgan...»

GERODOT

Ilk tangalar eramizdan avvalgi VIII-VII asrlarda Kichik Osiyo davlati Lidiyada va Egina davlatida zarb qilingan. Tanga zarb qilish Xitoy, Hindistonda ham ilgaridan paydo bo'lgan. Keyinchalik Elladada, Italiyada va Eronga tarqalgan.

Bonistika – qog'oz pullarni o'rganuvchi yordamchi tarix fanidir.

Ilgari tanga pul vazifasini o'tagan bo'lsa, keyinchalik uning o'rnini asta-sekinlik bilan qog'oz pullar egallay boshlagan. (XII yoki XVI asrdan boshlab.) Hozirgi kunda ham tanga ham qogoz pullar ishlatiladi.

Faleristika – medallar, jetonlar, ordenlarni o'rganuvchi yordamchi tarix fanidir. Bonistika va faleristika yordamchi tarix fani xisoblangan Numizmatika fanining ichidagi yordamchi fanlardir. Ya'ni ular numizmatika bo'limlaridir.

Numizmatika birinchi navbatda **kolleksiya** tarzida shakllangan va rivojlangan. Bu xol ilk bor Italiya uyg'onish davrida boshlangan. Yunoniston va Rimda bu xol qiziqish va xobbiga aylangan.

Taniqli kolleksionerlarning eng yirik namoyondalaridan biri italyan shoiri F.Petrarka (1304-1374) edi. Uning butun Dunyo mamalakatlaridan yig'ilgan minglab tangalari bo'lgan. Shuningdek, Kozimo Medichi ham kolleksioner bo'lib u qariyb mln.ga yaqin tangani o'z qo'lidan o'tkazgan.

XVI asrda Yevropa saroylarida 950 dan ortik numizmatika zallari yaratilganligi aniqlangan. Hozirgi kunda ham tangashunoslik muzeylari

mavjud.

XVI asra Evropada numizmatikaga oid ilmiy asarlar, kitoblar yaratilgan. Jumladan:

Y.Ekkel (1737-1798) Vena universiteti arxeologi, professor ilmiy numizmatikaga asos solgan. U antik tangalarni tarixiy-geografik nuqtai-nazardan 70.000 tangani tadqiq qilgan va tizimlagan. Shular asosida 8 tomli «Qadimgi tangalar haqida» (Nauka o drevnix monetax) kitobini yozgan.

Ungacha esa 1517 yilda Andreo Fulvio, Italiyan olimi «Mashhur shaxslar tasviri», 1533 yilda esa Gilom Ruli «Yanada taniqli shaxslar tasvirlari», ularning hayotidan qisqa satrlarga bag'ishlangan kitob yozgan.

I. Lelevel tomonidan yozilgan 3 tomli «O'rta asrlar numizmatikasi» (1835 yil) yozilgan.

XIX asr o'rtalarida XIII tomli «O'a asr Yeopa tangalari» kitobi nashriyoti rejalashtirilgan bo'b, uning 1-tomi 1986 yilda nashrdan chiqqan.

Sharq angalari tavsifini yaratgan olim, Germaniyalik, Rossiya akdemiya akademigi, Qozon universiteti professori Xristian Martin Fren (1782-1851)bo'b, uning kolleksiyasida 3 mln.ga yaqin tangalar bor. U Ekkel ishini davom ettirib «Sharq numizmatikasi knyazi» nomini olgan.

Rus tangashunosi Aleksey Vasilevich Oreshnikov (1855-1933) «Qadimgi rus tangalari» kitobi nashr etilgan. Shuningdek, Edvard Vasil'evich Rtveladze 1942 tug'ilgan. ToshDUda o'qigan, arxeolog numizmat. 70 dan ortiq arxeologik qazishmalarda ishtirok etgan. 1987 yil nashr etilgan.

O'rta asrlardan boshlab muzeylar tashkil qilingan. Numizmatika muzeylari:

Odessa numizmatika muzeyi, Ermitaj, Britaniya muzeyi, Luvr, Parij, umuman Evropaning aksariyat mamlakatlari muzeylarida tangashunoslik zallari mavjud. Navoiy viloyat muzeyida ham.

Tangalar haqida tushuncha

Avers – tanganing old tomoni

Revers – tanganing orqa tomoni

Emitent – tanga zarb qiladigan shaxs (podsho, hukmdor, amir, xon)

Legenda (afsona) – tangadagi uchraydigan barcha yozuvlar,

qisqartirilgan so'zlar, alohida xarflar atamasi.

Nominal – tangananing qadri

Proba – tangananing oltinga nisbatan qiymati

Obrez – aylana cheti.

Medal'er – medal yoki tanga quyish yoki zarb etish san'ati.

Monogramma – (grek tilida mono – bir, gramma –xarf, yozuv.) Tangada monogramma – tanga zarb qilgan usta hamda hukmdor ismi shariflarining jimjimador bosh harflari.)

Yevropaning ilk tangalari

Yuqorida ta'kidlaganimizdek Yevropada miloddan avvalgi 45 – yillarda Rimda Tit Kariziy magistrliги davrida ma'buda Yunona ibodatxonasida, old tomonida bejirim ayol boshining surati bezab turgan, orqa tomonida “Moneta” (grek tilida “Bashoratchi”) deb yozilgan dinor pul zarb qilingan.

Rim dinori zarb etilishiga qadar tangalar bir necha asrli tarixiy yo'l bosib o'tishga ulgurgan edi. Juda qadim zamonlardan beri tangani afsonaviy qahramonlar va ma'budlar yaratdi, degan aqida yashab kelar edi. Qadimgi grek manbalarida tangananing kelib chiqishi haqida uchta faraz borligi qayd etiladi. 1- faraz. Tangalar ilk bor Kichik Osiyo davlati Lidiyada zarb qilina boshlagan. 2-faraz. Kumush tangani Agros podshoxi Fidon kashf etgan. 3-faraz. Tangananing yaratilishi Eolidadagi Kima shaxrining afsonaviy shoxi Midasning xotini malika Germodik nomi bilan bog'likligi aytiladi.

Rim imperiyasi emirilgandan sung Sharqiy-Yevropa ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, ishlab chiqarish zaiflashadi, hunarmandchilik va natural xo'jalikka asoslangan mehnat taqsimoti vujudga keladi.

Doimiy mahaliy bozorlarning bo'lmaganligi, bu davrda tangalar asosan xalqaro pul vazifasini bajargan. Zero, ichki savdo ilk feodal jamoa xo'jaligining asosini tashkil etgan. Mamlakatda tovar ayriboshlash kuchli bo'lgan tangalar asosan boylik, xazina, mulk va to'lov vositasi sifatida zarb qilingan.

O'rta asrlarda Yevropa tangalar tarixini 5 davrga bulish mumkin

1. Varvarlar zarblari – V-VIII asr o'rtalari.

2. Karolinglar dinori –VIII o'rtalari –X asr.
3. Feodallar dinori – X-XIII asr o'rtalari.
4. Grosha va Florina – XIIIasr o'rtalari – XVIasr boshi.
5. Taler davri –XVIasr boshi – XVIII-XIX asrlar.

Varvarlar davri (V-VIII asrlar)

Pulning paydo bo'lishi qadimgi zamonlarda taraqqiy etgan madaniyatlar ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishlarning qonuniy oqibatidan kelib chiqqan tabiiy hodisadir. Tovar ayirboshlashning uzoq hamda murakkab jarayoni va chakana savdoning rivojlanishi tovar – pul hamda qimmatbaho buyum (yombi) ishlatish bosqichidan o'tib, oxir – oqibatda ma'dan tanga paydo bo'lishiga olib keldi. Birinchi tangalarning o'ng yoki tersida ularning o'lchovi to'g'ri, og'irligi to'la ekanligini tasdiqlovchi rasm – muhri bilan qimmatbaho buyumdan (yombi) farqlanadi.

Rasm – muhrlarda xilma – xil geometrik shakllar, hayvonlar, qushlar, baliqlar, sher, toshbaqa, dengiz mushugi, boyo'g'li va shu kabilar tasvirlanadi.

Faqat oradan ancha vaqt o'tgandan keyin tangalarda yozuvlar milloddan avvalgi VI asr o'rtalarida hamda Aleksandr Makedonskiy davridan boshlab, podshohlar va ma'budalarning tasviri paydo bo'ldi.

Varvarlar davrida tanga zarb qilish Rim imperiyasi an'alariga asoslangan. Shu vaqtlarda oltin, kumush, mis(bronza) tangalar zarb qilinib, funt og'irligiga ega bo'lgan(327,45 gr). Asosiy tanga – oltin solid (4,55gr q1G`72 funt) bo'lgan. Bu tangani imperator Konstantin I (306-337 yillar) zarb qilib, bu Vizantiyada to XI asrgacha saqlangan. Solid tanganing old tomonida imperator rasmi, orqa tomonida esa g'alaba xudosi qanotli Viktoriya tasvirlangan.

1-oltin tanga Vizantiya imperatori Tiberii II (579-582) tomonidan zarb qilingan. Bundan ilgari imperator Anastasiy I (491-518) mis tanga folis zarb qilingan.

Solid 40 dinorga teng bo'lgan. Bu “katta solid”.

12 dinorga teng bo'lgan. Bu “kichik solid”.

Karolinglar davri (VIII-X asrlar)

Yevropa tanga taraqqiyotida Karolinglar (Frantsiyada) davriga to'g'ri keladi. Bu davrda tangalar to'g'risida Nizomlar, qarorlar qabul qilingan. Bu davrda Pipin Karotki (751-768) va Karl Buyuk (768-814) islohotlari asosiy o'rin egallaydi. Karolinglar davrida vazni 1,25 gr teng

bo'lgan dinor zarb qilingan. Bu tangalar oldingilardan farq qilib, arablar ta'siri natijasida tangalarda podsholar rasmlari tushirilmagan. Endilikda ilohiy jozibador tasvirlar, harflar tasvirlangan. Bu tanga kumush blib, oltindan ham yuqori o'rinni egallagan. Pipindan so'ng o'g'li Karloman (768-771) tanga zarb qilingan. Bu vaqtlarda tanga zarb qilish ustaxonalari : Anje, Bezanson, Liona, Parij, Sen- et'en, Strastburg, Mastrix va boshqa shaharlarda bo'lgan. 800 yillarda tanga ortida ibodatxona va xoj tasvirlari paydo bo'lgan.

Feodallar dinori davri (X-XIII asrlar)

Bu davrda Yevropaning ko'p davlatlari feodalizm kuchayadi. Xalqaro tovar pul munosabatlari kengayadi. Bu davrda Yevropaning ko'p shaharlarida tanga zarb qilish shakllanadi. Mahalliy karolinglar dinorining qadri pasayadi. Endilikda chet mamlakatlarining pullari kirib kela boshagan. Bu vaqtda Chexiya (Yiglava- kumush koni XIII asr o'rtalarigacha), Italiya, Germaniya(Keln X sar), Frantsiya, Angliya va boshqa qirolliklarda tanga pullar zarb qilinib, bu pullar nafaqat o'z hududlarida, balki, butun Yevropada foydalanilgan. Asosiy tanga ishlab chiqarish X-XI Asrda Angliya, Germaniya davlatlari etakchi bo'lgan. Keyinchalik Vengriya, Daniyada rivojlangan. Lekin, bu tangalar ham uzoq vaqt foydalanilmagan. Endilikda ularning o'rnini Florina va Grosha tangalari egallaydi. (Tangalar doira shaklida bo'lgan.)

Grosha va Florina davri (XIII-XVI asrlar)

Bu davrda Grosha va Florina nomli tangalar butun Yevropanin qamrab olgan. Oltin Grosha ag'irligi – 1266gr. (turk groshi), oltin florina esa – 1252gr (florintiya floringi) bo'lgan. Dinorlar o'z qadrini yo'qotadi. Bu qiymatlar XVI asrgacha (to Taler davrigacha) mayda chaqalarga aylanib braverda va bora – bora kichik qiymatli tangalar qatoriga tushib qoldi. **Grosha** (Italiyada), **Florina** (Florensiyada)

Taler davri (XVI-XIX asrlar)

Bu davrda bu tanga birinchi bo'lib Italiyada zarb qilingan. Taler 23.5 va 33,5 gr og'irligi o'zgarib turgan va turli qiymatlarda bo'lgan. Bu tanga amerikadan keltirilgan kumush o'rnini egallagan va keng tarqalgan. Bu mis tanga qadrining balandligidan 4 asr foydalanilgan. Bu tanga Yevropani markazlashtirgan muqaddas Rim imperiyasida uzoq foydalanilgan, Germaniyada to I- jahon urushiga qadar saqlangan.

O'rta Osiyoning ilk tangalari

Lidiyada 1 - tangalar elektrdan - ya'ni oltin va kumush tabiiy qotishmasi – “oq oltin” dan, keyinchalik sof kumushdan zarb etilgan.

Faqat mashhur podshoh Krez mil.avv. 561-546 davridan keyin tilla va kumushning birga ishlatilishiga asoslangan tanga tizimi tadbiiq etilib, bu tizim Eronda kenga tarqalgan. Qadimgi tanga tizimlarda masalan, Millid, Fokey, Egin, Evbey tizimlarida har bir vazn standarti uchun maxsus zarb etilgan turli nominallar ishlatilarda. Makedoniyaning gullab yashanashi, Makedoniskiy davlati bunyo etilishi davrida tangalar nominalli yagona normaga keltira boshlangan. Bu vaqtda tanga zarb etishda asos qilib 17.44 gr tetradrham hamda 4.36 draxmli atteka tizimi ishlatila boshladi. Atteka tizimi bir necha asrlar mobaynida O'rta Osiyoning janubiy hududlarida asosiy tizim bo'lib kelgan. O'rta Osiyo ilk pul paydo bo'lgan joylar sirasiga kirmaydi. Buning asosiy sababi ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishning sustligidir. Bu erda tanga paydo bo'lgunga qadar asrlar davomida ayriboshlash, savdoning turli tuman turlari mavjud edi. Miloddan avvalgi VI – IV asrlarda O'rta Osiyo qadimgi ahamoniylar davlati tarkibida bo'lgan. Bu davlatda esa mil.avv. VI asrning ikkinchi yarmidan to 30- yillargacha oltin (darik) hamda kumush (sikl) tangalar zarb etilgan. Tadqiqotchilarning fikricha darik nomi mil.avv. 522-486 yillarda hukumronlik qilgan podsho Doriy Gistasp nomi bilan bog'liq. Chunki tangalar o'sha davrdan boshlab muomilaga chiqarilgan. O'rta osiyoning janubiy hududlari mil.avv. 312 - yili salavkiylar imperiyasining bir qismiga aylandi. Baqtriyada zarb etilgan birinchi tangalarning paydo bo'lishi salavkiylar davlatining sharqiy hududlaridagi satrapi keyinchalik uning podshohi bo'lmish salavkaning o'g'li Antiox nomi bilan bog'liq.

Avval Salavk I va Antiox I larning mushtarakligida kumush tangalari, keyinchalik esa yagona hukumdor sifatida Antiox I-ning tangalari zarb etila boshlandi. Ular orasida g'oyat qimmatbaho tangalar : stater, tetradrhma va dragma manbalarida aytilishi Antiox-I drammasining old tomonidan shoh, orqa tomonida ot tasviri tushirilgan.

Antiox 1 tangalariga taqlidan hilma – xal sug'd tangalari paydo bo'ldi. Mil. avv. III asr ya'ni ikki mustaqil Parfiya va Grek – Baqtriya podsholigi paydo bo'lgan davrdan tanga savdo munosabatlarida ishtirok etgan. III asrdan to II asrgacha Grek – Baqtriya podsholigi tangalari san'at darajasida ishlab chiqarilgan. Tangalar asosan kumush va misdan , ba'zan tilladan zarb qilingan. Ular orasida antik dunyo davrining eng yirik oltin tangalari mavjud bo'lgan. Bu tangalarning

ikkitasi haqida ma'lumot bor. Biri Buxoro amiri xazinasida saqlangan, ikkinchisi parijda saqlanadi.

Grek - Baqtriya kumush tangalari asosan bir andozada bo'lib, old tomonida xukumdor podsho, orqasida u o'ziga pir qilib olgan ma'budlarning masalan, Zevs, Gerakl, Poseydon, Appolon, Diyoskurlarning tasviri tushirilgan edi. Ularda podshoning martabasi, ismi va laqabini anglatuvchi gerk yozuvlari yarim doira va ustuncha shaklida joylashtirilgan.

Parfiya tangalarida tasvir etilgan shohlarning siymolarini har bir shoh surati uchun individual bo'lgan Tiara (qadimgi sharq podsholarining bosh kiyimi) shakli orqali farqlasa bo'ladi. Parfiya shohlari asosan qalin, uzun, to'lqinsimon turuvchi soqol tasviri tushirilgan. Tangada podshoning taxtdan o'tirgani tasvirlangan.

Uning chor atrofida grekcha yozuvlar. Mil.avv. 1- asrdan boshlab tangalarda Parfiya tilidagi yozuvlar paydo bo'lgan. Yozuvlarda podshoning nomi, tanganing qachon va kim zarb qilagini haqida ma'lumot bor.

Eramiz avv. dastlabki asrlardan boshlab to eramizning 1 asrlariga zarb etilgan sug'd tangalari bu jihatdan diqqatga sazovordir. Bu davrning behisob, turlituman sug'd tangalarini bir necha turkumga bo'lish mumkin.

Antiox, Salavkiylar tangalariga taqlidan zarb etilgan, ters tomonidan otning boshi tasviri tushirilgan kumush hamda mis tangalar.

salavkiylar yoki Aleksand Draxmasiga borib taqaluvchi. Gerakl va Zevs tasviri tushirilgan, ammo sug'd yozuvi bor kumush tangalar.

-chopib ketayotgan ot va tik turgan tangri tasviri tushirilgan gerkod kumush tangalari

-terandoz tasviri hamda sug'd yozuvlari tushirilgan kumush tangalar

-grek tilidagi yozuvlari xiralashgan, pala partish sug'd yozuvlari bor evtidim tetradrahmalariga taqlidan zarb etilgan tangalar.

Sug'd tangalarining aksariyat qismi to'g'ri shakldagi, yuzi uymali, vazni va diametri o'rtamiona kumush to'garakchalaridan iboratdir.

Er.oldingi II asrda Xorazmda ham tanga zarb qilina boshladi. Dastlabki Xorazm tangalari evkradir, tetradrahmalariga taqlidan zarb etilgan yirik kumush tangalar bo'lib, asl nusxalaridan farqli o'laroq, yozuvlari xiralashgan, ters tomonidan o'ziga xos belgi tre tamg'a borligi bilan ajralib turadi. Keyinchalik o'ng tomonida Evkratik tasviri mahalliy hukumdor surati bilan o'zgartiriladi va xiralashgan grek yozuvlari bilan bir qatorda podshoning ismi va unvoni haqida ma'lumot

beruvchi, Xorazm tilidagi yozuvlar, tanganing ters tomonidan esa suvoriyning rasmi paydo bo'ladi.

Ba'zi bir tadqiqotchilar Beruniy ma'lumotlariga asoslanib, tangada tasvirlangan siyomo xorazmshohar sulolasining asoschisi suvoriy tangri Suyovush desa, boshqalar bu tasvirda podsho tangri berilgan deydilar.

Tetradrahmaning o'ng tomonida sochlari hafsala bilan taralgan, peshonasiga tasma bog'langan, yuzlarida g'ayrat shijoat barh urib turgan erkak kishining beligacha tushgan surati berilgan. Tanganing ters tomoni kishi diqqatini o'ziga tortadi :

O'rtada ot mingan shoh. Uning orqasida gulchambar tutgan Nika ma'budasi parvoz qilayapti.

Kushon shohi Kadfiz II zamonida pul islohoti o'tkazilib, yangi tanga sistemasi asosiy stateri 8.03 ga teng keladigan turli tuman sifatidagi tillardan zarb etishga asoslangan bo'lib, ikki xil tanga joriy etilgandir: biri 16.07 gramm ikkinchisi esa 2.01 gramm. Shuning bilan bir qatorda diametri 23 – 25 mm, vazni 16-17 gramm keladigan mis tangalar ham muomilaga chiqarilgandir.

Tangalarning o'ng tomonida beriladigan suratning doimiy turiham ishlab chiqildi. Bu suratda yuzi yon tomonidan aks ettirilgan shoh mehrob oldida tik turganicha qandaydir diniy ibodat a'do etmoqda. Bu tipdagi kohin shoh tasviri boshqa barcha kushon podsholigining shohlari,shu jumladan. Kanishka, Vasudeva, Kanishka 3 tangalarida mavjud.

Ilk o'rta asr davrida antik davrga nisbatan tanganing o'ng va teslari anchagina o'zgardi. Tasvirlar bo'rtma emas siyqaroq, rasmlar esa oddiy chizila boshladi.

Yozuvlar va nasbni bildiruvchi tang'asi bor, ammo hukumdor yoki ma'budaning tasvirisiz shuningdek. Hech bir yozuvsiz tangalar yuzaga keldi. Bunday xol ilgari sira uchramagandi.

O'rta osiyoning bir qator viloyatlari tangalarini ekonografiya nuqtai nazaridan fisqacha tasvirlab o'taylik.

Choch. Bu viloyatning turli joylarida zarb etilgan tangalar g'oyat xilma xildir ko'pincha tangalarning o'ngida tik boquvchi yoxud yuzini xiyol chetga burib turgan hukumdor yoki shoh va malikaning siymolarini ko'rish mumkin. Aksariyat hollarda bu tasvirlar aniq bir shaxsning portret belgilaridan xoli bo'ladi va umumiylashgan, ba'zan hatto sxematik obraz tarzda ifodalanadi. Tangalarda yirtqich hayvon yaydoq ot va tuch tasvirlari tez – tez uchrab turadi. Bizning

taxminimizcha, bu jonivorlar hkumdor urug'ining homiy totimlari bo'lsa kerak. Tangalarning tersi bir xil tre – o'rtada tamg'a, uning gir atrofida hukumdorning ismi, unvoni hamda mulk nomi sug'd yozuvida berilgan.

Sug'd. Ilk sug'd tangalarining o'ngida silliq sochli ma'budanining tasviri bo'lsada, VII asrning yarmida sug'd hokimlari- ihshidlar hamda ularga tobe amlokdorlar to'rtburchak teshikli hech bir tasvirsiz siyqa tangalari zarb qila boshlashdi. Tanganing o'ngida kursiv bilan berilgan sug'd yozuvi hukumdorning ismi va unvonini bildiradi.

Tanganing tersida esa har bir hukumdorning o'z sulolasiga xos belgi berilgan. Bunday tangalar ulardagi ism va unvonlar o'zgartirilib, ettisoyda turgash nomli turk qabilasi, buxoro vohasida savdogarlar shahri bo'lmish Poykent, Shimoliy Tohariston va Shoshda zarb etilardi. Eng so'nggi sug'd tangalarida eramizning VII asridan boshlab, sug'd yozuvlari bilan bir qatorda qisqacha arab yozuvlari ham paydo bo'la boshlagan.

Istravshan. Qadimda hozirgi Tojikiston SSSR Lelinabod oblasti hamda O'zbekiston SSSR Jizzax oblasti territoriyalari joylashgan bu kichik o'lka hokimlari eramizning VII asr 2- yarmida va VIII asrning 1 yarmida o'zmischaqalarini zarb qilishardi. Bu tangalarning o'ngida sosoniylar tangalariga taqlidan boshiga qanotli chambar kiygan hokimning tasviri berilgan. Hokim satagariy tangalarida buning o'rniga bud parstlarning donishmandlik ramzi bo'lmish fil tasviri berilgan.

Buxoro. IV-V asrlarda zarb etilgan buxoromiz tangalarining o'ngida toj kiygan hokim boshining nuqtalar bilan o'ralgan tasviri, terisida esa sosoniylarning angalariga xos otashparstlar mehrobi yoki tamg'a berilgan. Oromiy tilidagi hukumdorlarning ismi va unvonini ifodalaydi.

Er. V- asr o'rtalarida bu erda sosoniy sulolasiga mansub shoh varahrabiy tangalariga o'xshatib kumush dirhamlar zarb etish yo'lga quyildi. Ularning o'ngida boshida jimjimador tojli, sosoniylar shahamshohi yon tomonidan olingan tasviri, tersida muqaddas olov qo'riqchilari mobedlarning tasviri tushirilgan. Tangalardagi yozuv sug'd xatining buxoro shakli bo'lib, "Buxoro shohi" ma'nosini anglatad. Bir tarafida Nortuya - bu "Avesto" da keltirilgan urush ma'budi Veretratma bo'lsa kerak. –tasviri berilgan mis tangalar ham keng joriy etilgandir.

Tohariston. Hozirgi shimoliy afg'oniston, o'zbekiston va Tojikistonning janubiy rayonlarida joydashgan bu ilk o'rta asrlar

o'rtasida tangalar, xususan, kumush tangalar zarb qilish sososniylarning kuchli tasiri ostida edi. Bu erda sosoniylarning turli tuman tangalari tarqalishi Peroz va Xusrav I Anushervonlarning mahalliy tangalari paydo bo'lishiga olib keldi. Bu xil tangalarda qisqa – qisqa Baqtriya, ba'zan sug'd yozuvlaridan iborat natchikamlar – tavqiy, xilma – xil bosh kiyimlar kiygan hukumdorlarning yon tomnidan olingan minatura suratlari hatto hayvonlar suratlari diqqatga sazovordir.

Numizmatikaning yordamchi tarix fanlari bilan bog'liqligi

Arxeologiya – kadimshunoslik haqidagi fan. Tangalarni asosan arxeologlar topadi.

Xronologiya – Tangalarning zarb kilingan davri yili aniklanadi.

Paleografiya – tangalardagi yozuv va xarflarni urganadi, uidi.

Lingvistika – tanga yozuvlari asosida usha davr tilshunosligini urganadi. Etnografiya – tanganing usha davr axolisi turmushidagi axamiyatini urganadi. Iktisodiyoti.

Geneologiya – podsholar, iloxlar tasvirlari. Ularning shajarasi. (Yunona, Evtimed, Yevropa kirollari karl, ..)

Toponimika – tanga zarb kilingan shaxar, davlat, xudud joy nomlarini aniklaydi. (Vaxshuvar Amudaryo xazinasi, Yevropa shaxarlari, Italiya, Keln, Frantsiya...kemalar tasvirlari.)

Metrologiya – tanganing kiymati. Funt, lira, Sum, dinor, grosha....

Zamonaviy tangalar va pullar

Mustakillikka erishgan mamlakatlarning tangalari va pullari haqida ma'lumot.

Avstraliya – dollar

Albaniya – lek

Angliya – funt sterling

Argnetina – peso

Armaniston – dram

Afg'oniston – afg'oni

Belarusiya – rubl

Belgiya – frank

Bolgariya – lev

Braziliya – real

Bangladesh – taka

Vengriya – forint

Vetnam – dong

Eron – rial

Irlandiya – funt

Islandiya – krona

Ispaniya – peseta

Italiya – lira

Qozog'iston – tanga

Qirg'iziston – som

Tojikiston – somoniy

Turkmaniston – manat

O'zbekiston – so'm

Kanada – dollar

Xitoy – yuan

Koreya – vona

Germaniya – marka
Gretsiya – draxma
Gruziya – lari
Daniya – krona
Misr – funt
Zambiya – kvacha
Isroil – shekel
Hindiston – rupiya
Iordaniya – iordan dallari
Iroq – iroq dinori
Indoneziya – rupiya
Rossiya - rubl

Quvayt – dinor
Latviya – lat
Litva – lit
Livan – funt
Liviya – dinor
Malayziya – ringgit
Marokko – dirxam
Meksika – peso
Moldaviya – ley
Mo'g'iliston – tugrik
Nepal – rupiya
Nigeriya - nayra

3. Mavzu. PALEOGRAFIYA (2 soat)

Reja:

1. «Avesto» tili.
2. Qadimgi Xorazm tili va yozuvi
3. Baqtriya tili va yozuvi
4. Ahmoniylar davri mixsimon yozuvlar
5. Sak tili va yozuvi
6. Sug'd tili va yozuvi
7. Runik yozuvi

ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q». T. «Sharq» 1998.
2. A.Sa'dullayev «Qadimgi o'zbekiston ilk yozma manbalarda». T. «O'zbekiston». 1996.
3. Viktor Drachuk. «Yozuvlar - o'tmishi sirlari shohidi».T O'zbekiston 1980.
4. Маҳмудов Т. “Авесто” ҳақида Т.
5. Mirsodiq Is'hoqov. Tarixiy jarayon va xolislik mezonlari. «Tafakkur» jurnali 1999 yil, 1-son 20-33 betlar.

Miloddan avvalgi 1 ming yillikdan boshlab O'zbekiston

tuproq'ida hududiy to'liq yoki qisman bir necha yirik madaniy-tarixiy viloyatlar joylashgan. Bu viloyatlar - Baqtriya, Sug'd, Xorazm, Fargona, Shosh (Choch) hududlaridir.

Markaziy Osiyodagi eng qadimgi xalqlarning yozuvlari qaysi davrda shakllanganligi haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Ayrim kam sonli topilmalar Qadimgi Xorazm sopol idishi sirtidagi yozuvlar va saklarning «nomalum xatlari» bu jarayonning millodan avvalgi V-IV asrlarda boshlanganligidan dalolat beradi. Ammo bu ma'lumotlar to'liq emas. Markaziy Osiyoda millodan avvalgi VIII-VI asrlarga oid hozircha tanga pullar, sopol, yog'och va boshqa buyumlarga oid bitilgan yozuvlar yoki xujjatlar topilmagan.

Milloddan avvalgi 1 ming yillikning 1-yarmida yurtimizda joylashgan turli xalqlar qadimgi sharq - eroniy tillar shevalarida gapirganlar. Bular : tигра hohuda, taray dara taraya, xouvamarga qabilalaridir. Maskur xalqlar nomlari Doro I ning qoyatosh yozuvlarida tilga olingan. Ushbu xalqlar til guruhini «Avesto» tili sug'dlar, xorazmiylar va baqtriylar tillari tashkil qilgan. «Avesto» -zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lib, shu dindagi xalqlarning shariat qonunlari majmuidir. Dastlabki «Avesto» tili oromiy tilda yozilganmi bu noma'lum. Ma'lumotlarga qaraganda, 21 ta kitob (nasx) dan iborat bu kitob zamonamizgacha yetib kelgan. «Avesto» qismlari millodning III-VII asrlarda tahrir qilingan. «Avesto» boblari «pahlaviy» - o'rta fors alifbosi asosida- 48 ta belgili yozuvdan iborat. «Avesto» «Apasta» yoki «Asos» deb tarjima qilingan. «Avesto» tili eroniylarning eng qadimgi shevalardan biri bo'lgan, qadimgi fors tiliga nisbatdan ancha oldingi bosqichda, milloddan avvalgi II ming yillikning oxiri -1 ming yillikning boshlarida paydo bo'lgan. Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» kitobida «Aleksandr Makedonskiy tomonidan yurtimiz bosib olingach u 12 ming nasxdan iborat oltin suvi bilan yozilgan kitoblarni *tog* qilib uyib yo'ib yuborgan» degan ma'lumotlar keltirilgan. Tarixiy ma'lumotlar shunga aniqlik kiritdiki, «Avesto» Sasoniylar (III asr) davrida qayta tartibga keltirilgan va 22 ta alifboga moslashtirilgan. (Xisrav 1 Anushirvon millodiy 531-579 y). «Avesto»ni matnlarini yozib olish maqsadida 48 belgidan iborat alifbo hamda 3 ta maxsus qo'shma belgalar kiritilgan. Bizgacha «Avesto»ning «Yasht», «Yasna», «Vidavdod», «Visparad» , «Xurdaki Avesto» kitoblaridan parchalar saqlanib qolgan. Avestoning «Yasht» kitobini M. Is'hoqov, «Gohlar» kitobini Rustam Abdukamilov o'zbekchaga o'girib, tadqiqot qilib kelmoqda. «Yasht» kitobida milloddan

avvalgi XIII- X asrlardagi (bronza davri) yirik patriarxal oila tasvirlangan. Eron olimlaridan Ibrohim Pur Dovudning «Avesto» forsi nashri ham dunyo yuzini ko'rgan. Avestoni birinchi bo'lib XVIII asrda fransuz olimi Anketil Dyuperon tomonidan tarjima qilingan. Uni qo'lidagi qo'lyozma XIII asrga oid bo'lgan. Birinchi galda «Avesto» zardushtiylar jamiyatining o'ziga xos axloq - odob majmui ekanini e'tirof etish lozim. Uning mohiyati quyidagi 3 tamoyilda ifodalangan : **ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal.** Zardushtiylar tasavvurida mana shu 3 tamoyilga to'liq bo'ysingan, amal qilgan inson - barkamollikning yuksak pog'onolariga ko'tarilgan.

Oadimgi Xorazm tili va yozuvi.

Markaziy Osiyo xalqlarining eng qadimgi yozuvi bu xumning sirtida tasvirlangan Xorazm tilidagi qisqa yozuvdir. U Katta Ayirbuyir qal'a shaxar xarobasida topilgan. Arxeologik ma'lumotlarga qaraganda bu yozuv milloddan avvalgi V-IV asrlarga tegishlidir. Millodan avvalgi IV - III asrlarga oid yana bir qadimgi Xorazm yozuvi Quyqirilgan qal'a harobasida topilgan sopol idishning sirtida saklangan. Bu yagona so'z bo'lib, «Asparak» otliq, chavandoz so'zidan iborat. -Xorazm yozuvida 20 belgi ishlatilgan. Bu yozuv belgilarini rus olimi Livshis va Korakalpog'istonlik qadimshunos M.Mambetullayev tadqiq etgan. Qadimgi Xorazm yozuvi oromiy alifbosiga asoslangan. Oromiylar-millodan avvalgi I ming yillikning boshlarida Mesopotamiya (ikki daryo oralig'i hududida joylashgan qadimgi xalqdir. Milloddan avvalgi VI-IV asrlarga kelib, 22 ta xarfdan iborat bo'lgan oromiy alifbosi O'rta Sharqning idora qilish, ish yurituvchi va ma'muriy tili vazifasini bajargan.

Baqtriya tili va yozuvi.

Bu O'zbekistonning janubida Surxon vodiysi va chegaradosh Tojikiston, shimoliy Afg'oniston yerlarida joylashgan tarixiy-madaniy viloyat aholisining tili hamda yozuvidir. Baqtriya yozuvi 2 xil. Biri-oromiy yozuv asosida shakllangan qadimiy bixtar yozuvi, ikkinchisi -millodan avvalgi III asrning o'rtalarida paydo bo'lgan yunon bixtar yozuvidir. Baqtriya tili va yozuvlari uncha yaxshi o'rganilmagan. Bizgacha yuzdan ortiq baqtriylar so'zlari yetib kelgan. Baqtriya yozuvi topilmalari millodning I asrlariga taluqlidir. Yunon yozuvida 25 ta belgi ishlatilgan. Oromiy - bixtar yozuvida esa nechta harf bo'lganligi hozircha ma'lum

emas, chunki bu yozuvga doir yodgorliklar bizgacha juda kam miqdorda yetib kelgan.

Ahmoniyalar davri mixsimon yozuvlari.

Millodan avvalgi 559 yilda Erondagi ahmoniyalar sulolasining yirik davlatiga podsho Kayxusrav I va Kayxusrav II asos soladi. Kambiz, Doro 1, Kserks kabi fors podsholari Qadimgi Sharqdagi juda ko'p mamlakatlari ustidan o'z hukmronliklarini o'rnatganlar. Milloddan avvalgi 545-540 yillarda ahmoniyalar Markaziy Osiyoning Parfiya, Marg'iyona, Baqtriya va Sug'diyona viloyatlarini bo'ysindirganlar. Sak - masagetlarga qarshi fors podshosi Kir 11 ning yurishlari milloddan avvalgi 530 yilda muvaffaqiyatsiz yakunlangan. Uning izdoshi Doro 1 (mil. avv. 522-486) milloddan avvalgi 518 yilda saklar yurtini istilo qiladi. Markaziy Osiyoda ahmoniyalar davlati 200 yil davomida milloddan avvalgi 330 yilgacha hukmronlik qilganlar. Ahmoniyalar davlati tarixda birinchi yirik imperiya davlati hisoblanadi.

Ahmoniyalar davri mixsimon yozuvlarda Markaziy Osiyo xalqlari va viloyatlari to'g'risida turli xil ma'lumotlar bor. Bu yozuvlar milloddan avvalgi VI - IV asrlarga oid bo'lib, Behistun va Naqshi Rostam qoya toshlarida, Suza, Persepol va Hamadon shaharlarida topib tekshirilgan. Ayniqsa, Karmanshoh va Hamadon shaharlari o'rtasidagi yo'lda baland qoyatoshda yozilgan yozuvlar e'tiborga molikdir. Unda : «Men Doro, ulug' podsho shahanshoh, mamlakatlar podshosi, Vishtasp o'g'li, Arshan nevarasi, Ahmoniy - hammasi 23 ta davlat ... Parfiya, Xorazm, Baqtriya, Sug'diyona, Saka va boshqalar. Shuningdek, Marg'iyona mendan ajralib Frada ismli bir odam o'zini viloyat hokimi deb e'lon qildi. Men Baqtriyadagi hokimi Dardanish bilan (mil.avv. 522 y) uni tor - mor qildim». Hamadon, Suza, Naqshi Rostam yozuvlarida esa Markaziy Osiyo xalqlari etnografiyasiga ta'luqli ma'lumotlar nihoyatda qimmatligi bilan ajralib turadi. Behistun yozuvlarining uzunligi 22 metr, balandligi 7-8 metr.

Sak tili va yozuvi.

Saklar Markaziy Osiyo va Qozog'istonning dashtlarida, cho'llarida va tog'larida joylashgan ko'chmanchi qabilalardir. Olimlar fikriga ko'ra, sak tilida yoritilgan eng qadimgi manba - bu Olmaota atrofida Issiq qo'rg'onida topilgan kumush idishdagi yozuvdir. U milloddan avvalgi V asrga ta'luqli. Tilshunoslik fanlarida Issiq yozuviga o'xshagan belgi yozuvlari «noma'lum xat» deb ataladi. Sak tilidagi yoritilgan xujjatlarning asosiy qismi Sharqiy Turkistonning Xotan vohasidan

topilgan. Ular VII-X asrlarga oiddir. Bu yozuvlarni G.V.Beyli, M.J.Drezden, L.G.Gersenberg, I.M.Oranskiye kabi olimlar o'rganganlar. Sak tili va yozuvi 26 ta belgidan iborat. Ma'lum bir qism yozuvlar yaqinda Afg'onistonning Dashtinavur degan manzilgohida ham topildi. Olimlarning fikricha, sak yozuvidagi ayrim tushuncha va atamalar hozirda o'zimizning tilimizda ham saqlanib qolgan.

1. hapta-hafta
2. band-bog'lab qo'yish
3. zar-oltin
4. nav-yangi
5. ap-ob (suv)

Sug'd tili va yozuvi.

Sug'd, Sug'diyona - tarixiy-madaniy viloyat bo'lib, Zarafshon, Qashqadaryo vohalarini o'z ichiga olgan. Milloddan avvalgi davrlarda Sug'diyona davlat bo'lgan emas, balki Qadimgi Baqtriya tarkibida madaniy viloyat bo'lgan. Sug'd yozuvi millodiy I -IV asrlardan boshlab, sug'd yozuvlari keng hududda tarqalgan. Bu jarayon sug'dlarning yangi yerlarni o'zlashtirish faoliyati va savdogarlarning «Buyuk ipak yo'li» dagi harakatlari bilan bog'langan. Shuning uchun ham sug'd tilidagi yozma yodgorliklar Markaziy Osiyo, Qozog'iston, Sharaqiy Turkiston, Pokiston, Mo'g'iliston tuprog'idan topib tekshirilgan.

Lekin milloddan avvalgi davrlarga ta'luqli sug'd yozuvi topilganiyam yo'q. Sug'd yozuvida 18 ta harf qo'llangan. Sug'd yozuvi o'zining fonetik va grammatik tuzilishi jihatdan husnixat (kalligrafik) xususiyatlari jihatdan alohida ajralib turadi. Bu yozuv ma'muriy boshqaruv tizimida keng qo'llangan. Xususan, 1965 yil Afrosiyob, Buxoroning «Ark va Varahsha» hududlarida topilgan yozuvlar bugunda ham tadqiqot qilinmoqda. Afrosiyob yodgorliklardan 16 katorli qadimiy sug'd yozuvini, «Ishonch yorlig'i» deb, rus olimi V.A.Livshis o'qib talqin qilib bergan. Bizning zamonimizgacha saqlanib qolgan sug'd yozuvlari orasida Padjikent yaqinidagi Qal'ai Mug'dan, Sharqiy Turkistonning Turfan shahridan topilgan yozuvlar fan uchun nihoyatda qimmatlidir.

Mug" hujjatlari 1932 yilning bahorida Tojikistn Respublikasining Zahmatobod tumaniga qarashli Hayrobod qishlog'ida A.Pulotiye tomonidan topilgan. Hujjatlar jami 80 ta bo'lib bulardan 74 tasi qadimgi Sug'd, Idonasi arab, 3 nafari xitoy va 1 donasi turk tilidadir. Hujjatlar charmga, taxtaga va qog'ozga yozilgan. Hujjatlar .sug'd podshosi Devashtich (708-722 y) shaxsiy arxiviga tegishlidir. Mug" qal'asidan

topilgan hujjatlarni A.A.Freyman, V.A.Livshis hamda O.I.Simirnov tomonidan tekshirilgan. 1962 yilda V.A.Lishik tomonidan maktublar topilmasi chop etilgan. Qal'ai Mug'dan topilgan hujjatlarda Utegin nomli yigit bilan Dundg'uncha ismli ayol o'rtasida nikoh guvohnomasi qayd etiladi. Agar Utegin Dudg'unchani ijozatisiz uning ustiga uylansa, u vaqtda Dudg'unchaga 30 dinoriy sof kumush dirhama tovon to'lashi va uni na xotin, na xizmatkor sifatida tutib turishi qat'iyan man etilgan. Uni ozod qilishi shart bo'lgan. Demak, adolatli qonunlar mavjud bo'lgan. Sug'dda bola besh yoshga to'lsa, yozuv va hisobga o'rgatilgan. 20 yoshga kirsam, savdo ishlarini o'rganish uchun o'zga mamlakatlarga junatilgan. Mug'dan topilgan hujjatlarga qaraganda savodxonlik va uni o'rganish ayniqsa, kotiblik san'ati yuksak darajada bo'lgan. Hujjatlarda Vchashfagin, Vachenox kabi kotiblarning nomlari bundan dalolat beradi. Samarqandda esa, kotiblik maktabi bo'lgan.

Muhim sug'd hujjatlari 1907 yilda Dunxuan (Xitoyning Gansu viloyatida) Talas daryosining o'ng sohilidagi Kulonsoy va Teraksoy ; daralaridagi qoya toshlarda topilgan. Bu yozuvlar IV-XI asrlardagi sug'd kaloniyalariga tegishli bo'lib, savdo aloqalari haqida muhim ma'lumotlar berilgan.

Islomdan oldin turkiy xalqlar orasida keng qo'llangan yana bir yozuv - **uyg'ur yozuvidir**. Undan VI-VIII asrdan e'tiboran foydalanilgan. U arab yozuvi bilan yonma - yon XV asrgacha ishlatilib kelingan. U sug'd yozuvi asosida shakllangan. Bu yozuv o'ngdan chapga qarab yozilgan. Unda 18 ta xarf bor. Shunga ko'ra ularning 3 : suz boshida, o'rtasida va oxiridagi shakli mavjud. Bu yozuv haqidagi dastlabki ma'lumot Mahmud Qoshg'ariyning « Devoni lug'otit - turk» asarida berilgan. U «barcha xoqonlar va sultonlarning kitoblari, yozuvlari qadimgi zamonlardan shu kungacha, Qoshg'ardan Cliingacha hamma turk shaharlarida shu yozuv bilan yuritilgan» , deb yozgan. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u - bilig» . Asarining XV asrda Hirotda ko'chirilgan nushasi, Ahmad Yugnakiyning «Xibatul - xaqoyiq» asarining qam uyg'ur yozuvidagi nusxasi ham topilgan.

O'rxun-Enasoy yozuvlari. (runik yozuv)

Mazkur yodgorliklarni topish va o'rganish XVIII asrda boshlangan. Rus xizmatchisi Remezov, shved zobiti logann Strallenberg, olim Messershmidt yodgorliklarni ilk marta Yevropa ilm ahliga taqdim etgan. Yodgorliklar dastlab O'rxun, Selenga va Tuli daryolari atrofida topilgan.

O'qish juda murakkab bo'lganligi sababli 1893 yilda daniyalik olim Vilgelm Tomson va rus olimi V. Radlovlar tomonidan barcha yodgorliklardagi harflar o'qilgan. Dunyoning turli burchaklarda Mo'g'iliston, Germaniya, Xitoy, Qozog'iston, Qirg'iziston hududlarida bu obidalar asl manbalari topilgan.

V-VI asr o'rtalarida dunyo xaritasida Turk xoqonligi degan mamlakat yuzaga kelgan. 545 yildan to VIII asrgacha mavjud bo'lgan. Bitiktoshlar nomlari «Tunyuquq» (Shimoliy Mo'g'iliston hududi- 1897), «Kultegin» (Mo'g'ilistonning Ko'kshin O'rxun daryosi qirg'og'ida - rus ziyolisi N.M. Yadrinsev (1842-1894), «Bilga xoqon» bitigi N.M. Yadrinsev, o'zbek olimlaridan A.Qayumov, G.Abdurahmonov va A.Rustamovlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar. «Irq bitigi» (Ta'birnoma) qog'ozda bitilgan. Uni vengr olimi A.Steyn Sharqiy Turkistondagi Dunxua manzilidan topgan (1907 y). Kumush ko'zachalarda topilgan runik yozuvi Sibir o'lkasidan ham topilgan. Yog'ochda bitilgan runik yozuvlari Peterburg Ermitajida saqlanadi. Bu yozuvlar avtori ham qayd etilgan. Avtorning ismi - sharifi Yulug' Tegindir.

Sulton Ali va Mirzo Bobur bu davrning buyuk aql egalaridan bo'lganlar.

Shunday qilib, IX asrdan to XX asrgacha, taxminan 1000 yillik tarixda O'rta Osiyo xalqlarining ilm fan va ma'naviyat madaniyat sohasida yaratib qoldirgan buyuk meros bizning davrgacha, asosan, qo'lyozma kitoblar shaklida yetib kelganlar.

Arab yozuvida kitobat qilingan ishning yillik madaniy meros nasldan - naslga qo'lyozma shaklda o'tib kelgan. Shu qo'lyozmalar tufayli O'rta Osiyodagi har bir xalq, har bir millat o'z tarixiga ega bo'lgan. Shu qo'lyozma kitoblar tufayligina O'rta Osiyo xalqlari ota-bobolari yaratib qoldirgan madaniyat merosidan bahramand bo'lganlar. Nihoyat shu qo'lyozmalar tufayli O'rta Osiyo xalqlari jahon madaniyat tarixi taraqqiyotiga o'z hissasini qo'sha olganlar.

XVIII- XIX asrlarda xattotlik.

Buxoro xattotlik XIX asrning buyuk olimi ensiklopedik aql egasi Ahmad Donish undan zebo qo'lyozmalar ko'chirib qoldirgan. Muqimiy juda mayda xastalik va shikasta xatida bayoz ko'chirgan.

Bularning hammasi shuni ko'rsatadiki, O'rta Osiyoda kitob chop etish texnikasi ixtiro etilmagan bir davrda kotiblikka talab nihoyatda zo'r bo'lgan. Kotiblik o'z tavsifatida madaniyat hayotning qay darajada taraqqiy etganligini aniqlovchi omillardan biri hisoblangan.

Badiiy qo'lyozmalargina emas, balki oddiy kitoblarni ham

tayyorlashda bir necha kasb egalari ishtirok etgani uchun qo'lyozmalar kolektiv mehnat maxsuli sifatida maydonga kelar edi. Qo'lyozmalarni kitob holiga keltirishda bir necha mutaxassislar ishtirok etganlar. Ulardan birinchi darajada ishlari qog'ozsiz (qog'oz tayyorlovchi), xattot (ko'chiruvchi), muzahqib (oltin hal beruvchi), lavvoh (sarlovha va jadvallarni ziynatlovchi), rassom (qo'lyozmalarga miniatyuralar ishlovchi) va saqxoir (muqovasoz). Biz bu hunar egalarini kasbi va ish jarayonlari bilan qisqacha tanishib o'tamiz.

Shu yo'sinda bir necha san'at ustalarining ishtirokida tayyorlangan qo'lyozmalar, odatda, san'at mu'zisasi darajasiga ko'tarilgan va badiiy qo'lyozmalar o'z zamonasida buyuk olimlar, shoirlar kutubxonalari tashkil etgan. XV-XIX asrlardagi Buxoro, Xiva va Farg'ona saroy kutubxonalari, ko'pincha, eng qimmatbaho badiiy qo'lyozmalar hisobiga boyigan. Bir qator qo'lyozmalar davlat boshliqlari va katta mulk egalari ehtimoli bilan dunyoga kelgan va yuqori baholangan. Xonlar, sultonlar, amirlar saroy kutubxonasiga qabul qilingan har bir qo'lyozma podshoh xazinasiga qabul qilingan oltin va javohir singari xazina boyligi deb qaralgan. Boshqacha qilib aytganda, mu'tabar va badiiy qo'lyozmalardan tashkil topgan va turli asr obidalarini o'z ichiga olgan saroy kutubxonalari shohlarning oltin javohirlaridan tashkil topgan xazinasidan ham yuksak va bebaho xazina hisoblangan.

Turkiy xalqlar shu jumladan o'zbek xalqi turli yozuvlardan foydalanganlar. Chuqur singarmonizmga asoslangan O'rxun - Enasoy yozuvi xorijiy adabiyotlarida turk - runa (dulbarchin yozuvi deb yuritiladi) qirqdan ortiq belgili bo'lib, belgilarning ko'pligi bu yozuvda til oldi va yil orqa tovushlari uchun har biriga alohida - alohida harflar qabul qilinganligida edi.

Turkiy xalqlar turli davrlarda sug'd, paxlaviy, moniy, brahmal va boshqa qator yozuvlardan foydalandi.

Turk dunyosi X asrdan oshiqroq davr mobaynida foydalanib kelayotgan arab yozuvida islom dini, arab tilining muqaddas aqidalariga tayangan holda alifbo va yozuvdagi imloviy qonuniyatlar saqlab qolindi.

1929 yildan boshlab lotin yozuvi asosidagi alifboga o'tildi. 1934 yilda o'zbek tilshunoslarining I quriltoyi 30 harfdan iborat yangi alifboni joriy qilindi. Bu yozuv 40 yillarning boshlariga qadar amalda bo'lib, keyinchalik kirilcha yangi alifboga asos qilib olishdi.

Shu tariqa hozirga qadar amalda bo'lgan alifbo va imlo qonuniyatlari vujudga keldi.

O'zbek paleografiyasi

Miloddan avvalgi birinchi ming yillik o'rtalarida Eron, Markaziy Osiyo va boshqa o'lkalarda oromiy yozuvi keng tarqalgan. Markaziy Osiyoni Zulqarnayn bosib olgach, bu yerga yunon yozuvi kirib keldi. Xullas, bu davrda ahamoniylarning oromiy yozuvi asosida sug'd, baqtr va xorazm yozuvlari paydo bo'lgan. Tarixiy yozma manbalarning guvohlik berishicha, Kushon davlati davrida hind xalqlari bilan o'zaro aloqadorlik negizida Brahma va Qharoshhi deb atalgan hind alifbolari ham ishlatilgan.

Muarrixlar muqadori «Avesto» kitobini miloddan avvalgi VII - V asrlarda bitilganligini taxmin qiladilar. Markaziy Osiyoda uzoq vaqtlar qo'llanib kelingan xorazm va sug'd yozuvlari ham qadimiydir. Xorazm yozuvi oromiy yozuvining qadimiy an'alarini o'zida saqlab qolgan edi. Buni rus olimi S. P. Tolstov o'z hamkasblari bilan Xorazmdagi Qo'yqirilgan qal'asida arxeologiyaga oid tadqiqotlar uyushtirib topgan ashyolar asosida isbotladi. Bu yerdan u xorazm yozuvi namunalarini topdi. Bu yozuvlar qadimiy xorazm tangalari, muhrlari, hujjatlari, san'at asarlari, uy-ro'zg'or buyumlarida aks etgan edi.

Massagetlar va shaklar orasida tarqoq holda yashagan sug'dlarning yozuvi bitilgan ba'zi manbalar bizgacha yetib kelgan. Jumladan, Sug'diyonada topilgan mil. av II asrga mansub sug'd tangalariga zarb urilgan «Gerot Jabg'u, Katorus Jabg'u» so'zlariga qarab, arxeolog olimi O. N. Smirnova sug'dlar turk tilida so'zlashganlar degan xulosaga keladi. Sug'd hokimlari va lashkarboshilarining ko'pchiligi turk bo'lganligini mashhur tarixchi Tarobiy ham ta'kidlaydi.

Shunday qilib, yuqoridagi dalil asoslar Markaziy Osiyo hududidagi xalqlar eng qadimgi yozma madaniyatiga ega bo'lganligini isbot qiladi. Bu g'oyatda muhim siyosiy ahamiyatga molik masaladir. Chunki qadimgi ajdodlarimiz o'z rivojlangan davlatchiligi yuksak rivoj topgan madaniyati va yozuviga ega bo'lgan, qadim - qadim zamonlarda shimoliy mintaqalarda yashovchi xalqlar hali yovvoyilik bosqichidan ham chiqmagan edilar.

Sug'd, Xorazm va Tohariston aholisining alohida - alohida yozuvlari bor edi. Bulardan sug'd va xorazm yozuvlari qadimgi oromiy yozuvi asosida maydonga keldi.

Toxariston yozuvining asosi esa o'z navbatida sug'd va xorazm yozuvlaridan olingan. Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyo va Xitoyda qog'oz ishlab chiqarish garchi ancha yo'lga qo'yilgan bo'lsa ham, xat, hujjat va

boshqa yozuv ishlari asosan charm, yog'och, suyak, sopolga va kamdan-kam hollarda qog'ozga bitilgan. Chunki qog'ozning bahosi nihoyatda baland edi. Ayrim bitiklar hatto podsho saroylari va ibodatxonalar devoriga ham yozilgan. Ular orasida elchining maktublari, xo'jalik kirim va chiqimlari, yuridik shartnomalar, astronomik hujjatlar, tarixiy yodgorliklar hamda diniy aqidalar bitilgan nodir qo'lyozma topilmalar bor. Bizning zamonimizgacha saqlanib qolgan yozuvlar orasida Panjikent yaqinidagi Qal'ai Mug'dan, Sharqiy Turkistondagi Turfon shahri yaqinida topib o'rganilgan hujjatlar hamda Samarqandning qadimiy xarobasi Afrosiyobda qayd etilgan devoriy yozuvlar ayniqsa betakror. Zardushfiylarning diniy kitobi bo'lgan «Avesto» da O'rta Osiyo va Sharq Eron hududlarida Ahamoniylar imperiyasi tashkil topgan vaqtga qadar qandaydir davlat tuzumi bo'lganligi uchraydi. Ular harbiy - demokratik tipdagi qabilalar ittifoqidan o'sib chiqqan davlatlar edi. Har qanday davlat tuzumining shakillanishida yozuvning bo'lishi katta ahamiyat kasb etgan va ana shu yozuv orqali davlatni boshqarish mumkin bo'lgan. Sunday ilmiy xulosa qadimgi Misr va Mesopotamiya hududlarida o'z vaqtida tarkib topgan qator quldorlik davlatlari tajribasidan kelib chiqqan haqiqat bo'lib O'rta Osiyo hududida mil. av VII - VII asrlarda bu holat kuzatilmaydi, chunki u davrga oid yozuv hozirgacha topilmagan.

Arxeolog ilmiy izlanishlar ega bu hududda yozuv birinchi bor mill, av V - IV asrlarda paydo bo'lganidan guvohlik beradi. O'rta Osiyo anashu qadimgi yozuvlari fonda «sug'd yozuvi», «baqtriya yozuvi», «xorazm yozuvi» nomlari bilan ma'lum.

Yangi tarixiy shart - sharoitda mustaqillik talabi, milliy istiqlol mafkurasi yangi o'zbek alifbosini yaratish vazifasini qo'ydi. Tilshunos olimlar oldiga qo'yilgan talablar shulardan iboratki, yangi alifbo davr talabiga javob bersin, o'zbek nutqining hamma hususiyatlarini o'ziga mujassam etsin.

Uzoq davom etgan mulohazalar natijasida lotin yozuvi asosidagi o'zbek alifbosiga o'tish ma'qul topildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1993-yil 2 - sentabr lotiy yozuvi asosida o'zbek alifbosiga o'tish to'g'risida qaror qonunular qabul qildi. Ana shu vazifani amalga oshirish biz yoshlardan o'z bilimimizni boyitishni, ilmiy izlanishni talab qiladi.

4. Mavzu: GERALDIKA (2 soat)

Reja:

1. Gerbshunoslikning vujudga kelishi va rivojlanishi
2. Gerbshunoslikning manbalari
3. Formal gerbshunoslik
4. Gerbshunoslikning rivojlanishi

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublika Konstitusiyasi. T . «O'zbekiston» . 2003.
2. Karimov I. A Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q T. Sharq 1998
3. O'zbekiston Respublikasi : mustaqil davlatning bunyod bo'lishi. T . «O'zbekiston» 1992y.
4. Введение в специальные исторические дисциплины. М. МГУ 1990.

Geraldika (tamg'ashunoslik) lotincha geraldus (jarchi) tarix fanining yordamyachi bo'limi. Tarixning ma'lum bir davrini o'rganar ekanmiz, bevosita shu davrni merosi har xil simvollik belgilarga, muhrlari, tamg'alari, qurollari va arxetektura inshootlarida, qabristonlarda bitilgan turli xil turdagi va shakldagi gerb tasvirlariga duch kelamiz. Bularni ko'riboq muammolar paydo bo'ladi.

Fanda gerblarni qachon kelib chiqishi to'g'risidagi masalada deyarli bir xil fikr yo'q. Ba'zan olimlarimiz uni antik dunyo bilan bog'lasalar, bazilari XII asrda dunyoga kelgan deb bilishadi. Er . avv. III-II ming yilliklarda geraldik tasvirlar misrliklar, midiyaliklar, forslar singari Gresiya va Rim tangalari, medallari va muhirlarida ham uchraydi. Masalan: Afinani simvoli sifatida - Boyo'gli, Poleponsniki-toshbaqa, Fivaniki- qalqon, A. Makedonskiyning dubulg'asida- dengiz oti, Sezarda qurollangan -Venera, afsonaviy Axilisda- sher tasvirini ko'ramiz. Ayni paytda O'rta Osiyo xalqlarining arxetektura madaniyatida ham (Afrosiyob, Bolaliktepa, Varahsha) turli hayvonlar fil, ot, tuya, qanotli otlar, echki, qushlar, sher tasviri tushirganligini guvohi "bo'lamiz. **Ayni paytda bu sur'atlar**

gerblar emas edi, chunki bu tasvirlar keying! avlod tomonida o'zgarmagan holda davom ettirilmagan.

Dastlabki gerb shakllarini muhrlar (pechat) da ko'ramiz. Muhrlar (pechat) so'rgich, mum yoki qog'ozga, turli hujjatlarga o'zidagi qavariq yoki botiq belgilardan nuxsa tushiradigan maxsus asboblardan bo'lgan. Muhr asosan turli xil sopol, mis, po'lat, bronza, kumush, oltindan qilingan. Shakli ham turlicha: doira, uchburchak, to'rtburchak, ellipsimon "boMib, old tomonida har xil simvollar yoki yozuvlar belgilari tushirilgan. Muhrlarni qachon paydo bo'lganligi to'g'risidagi masalada aniq bir ma'lumot yo'q. Lekin hech bir xalq, mamlakat simvolar, muhrlar to'g'risidagi tushunchadan chetda turmagan. Xatta ispanlar Kolumb boshchiligidagi Amerika qit'asidan qaytganlaridan keyin kelib o'z vatandoshlariga yerli aholi, indeyslar o'zlarining yuzlarida har xil buyoq bilan turli tasvirlar chizishganligini va bu har bir shaxsning o'zini simvoli borligini bildirib turishlarini aytishgan. Har holda bu belgilarni muhrlarga, gerblarga o'z xususiyatlarini o'tqazishganligiga kim qo'shilmaydi deysiz.

Qadimgi Rim davlatida imperatorlarning muhrlari odatda oltin uzukka har xil tasvirlar: podshoning surati yoki muhim voqe'alar tushurilgan. Uning avlodiga ham shu muhr meros tariqasida o'tgan. Ba'zida imperatorlarning vaziyatga ko'ra uning muhri boshqa ishlatilishi ta'qiqlab qo'yilgan. Chunonchi, Vatikanda 1544 yili imperator Ronoilning rafiqasi Mariyani qabrini ochib ko'rilganda boshqa har xil oltin uzuk va kumush jihozlardan tashqari 40 ga yaqin oltin uzuk shakldagi muhrlar topilgan.

Muhr shaxs faoliyati bilan bog'langan bo'lib, ma'lum bir maqsadga xizmat qilgan. Uning kimga qarashli ekanligini bildirgan. Odatda muhrlar teri yoki qog'ozda yozilgan maktublarning oxiriga tushurilgan. Ba'zida sir saqlangan hujjatlarga muhrning qalbakiligidan saqlanish uchun soch yoki mo'ylov tuki ko'yib yopishtirilgan.

Qadimda Markaziy Osiyodagi har bir boy, eshon, mufti, qozi, amir, xonning o'z muhri bo'lgan. Muhr yasash ya'ni- muhrkanlik usta mashg'uloti Markaziy Osiyoda keng tarqalgan. Temur saroyida, Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklari saroyida muhrkanlik ustaxonasi bo'lgan. Muhrkanlar xonlikdagi turli boshqaruv muassasalar hamda amaldorlarning muhrlarini tayyorlashgan. Ular san'ati o'zining nafisligi, murakkabligi bilan ajralib turgan. Ayniqsa, yozuv va tasvirlar tushirish san'ati keng tarqalgan .

Dastlabki paytlarda qanday qilib muhrlarning gerblarga o'z xususiyatlarini o'tqazganligi masalasida aniq bir fikrga kelish qiyin. Ko'pchilik olimlar muhrlar va gerblar bir paytda paydo bolgan deyishadi.

Lekin fanda ma'lumki, muhr va gerb tasvirlari bir xil ma'no va tushunchada ifodalanmaydi. Simvollar bu hali gerblar emas. Aksariyat olimlarimiz gerblarning kelib chiqishini antik dunyo bilan boglaydilar. Er. avv. Ill-ming yillikda Shumer davlatining gerbida sher boshli burgut, qadimgi Rim davlati gerbida burgut rasmi tasvirlangan. Arxeologik qazishmalar O'zbekistonda ham qadimgi muhrlar, tangalar va buyumlarga simvollar bilan birgalikda gerb tasvirlari ham tushurilganligi keng tarqalganligini ko'rsatadi. Lekin bu gerblar tasviri emas.


Tarixda dastlabki gerb tasviri Normandlarning 1080 yildan beri saqlanib kelayotgan Baye gilamida tasvirlangan deb qabul qilingan. Jumladan, Konstantinopolga kelgan salb yurishi qatnashchilari fransuz risarlarining qalqonlarida ham gerb tasviri tushurilganligi haqida ma'lumot bor. Har holda dastlabki gerblar XII asrda vujudga kelgan deb hisoblashimiz mumkin. Lekin, shuni ta'kidlab o'tish o'rinliki, aksariyat olimlarimiz gerblarning kelib chiqishini, uning avloddan - avlodga meros o'tganligini, german xalqlari tarixi bilan chambarchas bog'liq ekanligini ta'kidlashadi. Q'zining urushqoqligi, botirligi, harbiyligi bilan ajralib turgan. Bu xalqlarning risarlari o'zining qalqoni, dubulg'asi (shlyomi) da har xil hayvon yoki ular shoxini tasvirini tushurishgan, keyingi avlodlari esa aynan shu simvollarni ya'ni gerblarni qabul qilishgan. Jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy tuzum jamiyat hayotida gerblarni qaror topishini tezlashtirgan. Chunonchi, yer egasi feodal o'z yer uchaskasi hududini, chegarasini doimiy | muntazam turishini, qo'shni feodal yeridan ajratib ko'rsatish maqsadida o'z gerbni joriy qilgan. Unga qarashli kichik harbiy otryad va xujalikda ishlayotgan kishilar ham o'z feodallari gerbi atrofida birlashishgan. Gerblarning qaror topishini yana bir tomoni, risarlikning vujudga kelishi bilan ham bog'liq. Odatda, risarlarni faqat uni qalqoni, sovuti, dubulg'asi ot ustida tashlangan materialga tasviri tushirilgan gerbidan tanishi mumkin bo'lgan yoki jang maydonida o'lgan risarni gerbidan tanishgan, asir almashish paytida gerbidan tanib almashtirilgan. Qo'rqqoqlik qilgan risar jangda qochganligi sababli, uning gerb chizilgan qalqoni to'ntarib qo'yilgan, albatta, bu yengil jazo bo'lgan. Agar qirol risarni jazolamoqchi bo'lsa, uning bayrog'i bilan dastlab qalqonini yoki gerb chizilgan yaroqlarini, bolta bilan chopishga buyruq bergan, so'ngra risarni boshiga issiq suv ko'yilgan, shundan so'ng sud hukmiga havola qilgan. Bundan keyin shu risarni avlodi shu gerbni olishi va harbiy musobaqalarida qatnashish hukmidan mahrum etilgan.

Evropada gerblar va unda tasvirlanadigan qalqonlarning 30 ga yaqin turlari bo'lgan. Hatto ayollarning alohida gerblari bo'lib, ular asosan ovalsimon va rombsimon shaklda bo'lgan. Romblar tepa qismida toj, pat va

bosqi nozik va qimmatbaho jismlar tasvirlangan.

Gerb topografiyasi – ya'ni gerblarni tasvirlashda gerb o'ziga xos qismlarga ajratilgan va alohida nomlangan.

1. Asos (bosh qismi).
2. O'ng kanton
3. So'l kanton
4. Yurak
5. O'ng tomon
6. Chap tomon
7. Ostona
8. O'ng kanton ostonasi
9. So'l kanton ostonasi



Odatda gerb rangi undagi turli hayvonlar, qushlar, hasharotlar, osmon jismlari va boshqa tasvirlar har xil simvol sifatida berilib ma'lum bir ma'noni anglatgan.

- oltin rang - hammasidan yuqori, boy kuchli, toza, doimiy;
 - kumush rang - shahzodalar gerbi, hammasidan ham mustahkam
 - qora rang-vazmin, ma'lumotli, qayg'uli
 - yashil rang - erkin, imkoniyatli, orzuli;
 - qizil rang-jasur, tanti, charchamaydigan;
 - ko'k rang-chiroyli to'g'ri; Hayvonlar:
 - sher - hayvonlar podshosi, keng qalbli, qudratli, jasur;
 - qoplon - qo'rqmas, jangavor
 - ot-o'zida hamma kuchli hayvonlar belgilarini o'zida qamrab olgan;
 - mushuk-mustaqillik timsoli, erkinlik ramzi;
 - oxu yoki kiyik- jangchi emblemasi bo'Mib xizmat qilgan, uning hididan ilon qochgan, demak, dushman u bilan to'qnash kelishga qo'rqan;
 - bo'ri-g'azab, qahr, xasisilik timsoli
 - ayiq - oldindan ko'ruvchi, ov-havoni oldindan biluvchi;
 - kutos-xosil beradigan yer;
 - echki - bahor simvoli, zodiakka ko'ra mart oyiga to'g'ri keladi; Qanotli qushlar:
 - qarg'a-sergak, uzoq umr ko'ruvchi;
 - feniks-olovga tashlanganda ham o'lmas, tirik ;
- Hasharotlar:
- chumoli va ari - mexnatkash, bo'ysinuvchi;
 - ilon - doimiylik simvoli;
 - kapalak - vafodorlik belgisi; Daraxtlar:
 - dub-kuchli va mustahkamlik belgisi;

- palma-uzoq umr ko'ruvchi;
Osmon jismlari :
- olam - shar shaklida,
- quyosh - buyuklik, boylik simvoli,
- yer -tog' va balandliklar tarzida;
- yulduzlar - gerb chetlariga tushirilgan gerblar ma'nosini to'ldirgan va boyitgan, bar xil tasavvur qilingan afsonaviy buyuk simvollar;
- Garpiya- qizbola, boshi va ko'kragi odam, tanasi burgut shaklida, qanotli;
- kentavr - yarim odam, yarim ot shaklida;
- gidra - ajdar tasvirida beriladi, ma'nosi «boshini kessang yangisi usib chiqadi» vahokazo.

Albatta, yo'qorida tilgaolingan jonli mavjudodlarning ma'lum bir harakatidagi tasviri gerblarga tushirilgan. Jumladan, bu harakatlar ham biror bir ma'noni ifoda qilgan.

Huquqiy qonunlarning tasdiqlanishida ham feodallar gerbi hujjatda o'z ifodasini topgan. O'rta asrlarda oddiy xalq vakillarining o'zining gerbi bo'lmagan. Lekin , uni o'zining kundalik hayotlarida doimo uchratishgan. Keyinchalik gerblar tasviri, qabristonlarda, cherkovlarda, sex, shahar darvozalarida, ko'chalarida tasvirlangan. O'rta asrlarda ko'pgina shaharlar o'z gerblariga ega bo'lganlar. Venetsiya gerbida qanotli sher, Londonnikida but va qilich, Moskvanikida chavandoz rasmi tasvirlangan.

Markaziy Osiyo xalqlari tarixida ham gerblar garchi Yevropa mamlakatlaridek rivojlanmagan bo'lsada, har holda uning tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Yozma manbalarga murojat qilsak, Buxoroning asoschisi Siyovushning bayrog'ida ona kiyik, Samarqand shahri (Amur Temur) gerbida 3 halqa tasvirlanganligini guvohi bo'lamiz. Jumladan, Markaziy Osiyo arxetekturasi binolari peshtoqlarida bir - biriga qarama qarshi turgan sher (Sherdor madrasasi peshtoqida) tasvirini ko'ramiz. Yoki, akademik V.V.Bartoldning fikriga qo'shilsak, «Shohi Zinda ansamlidagi qushlar tasviri o'tmish davrlar geroldik kompozitsiyasini davomidir». Jumladan, hozirgi kungacha davom etib kelayotgan har xil materiallarga: so'zana, kashtalarga tushirilayotgan geraldik tasvirlar qadimdan meros bo'lib kelayotganidan dalolat beradi. Lekin ming afsuski, bu gerblar darajasiga yetib bormagan, sababi uni keying! avlod o'zgarmagan shaklda davom ettirmagan. G'arbiy Yevropa mamlakatlarida gerblarning ommaviy joriy etilishi feodal davlatlari saroyida gerbni ro'yxatdan o'tkazish, sistemalash va yangi xillarini ishlab chiqish uchun aloyida xodimlar (geroldlar) tabakasini vujudga keltirdi. XIV asrdan

boshlab gerbchilar ustaxonasi tashkil topgan, unda murakkab va rangli gerblar yaratilgan.

Masalan, Fransiya qirolligida 30 ta gerbchi bo'lib, shundan qirol Geroldi Manjua - San - Reni qirol saroyida qolganlari turli nohiyalarida ishlab turgan. Gerb olish tartibi ham ancha murakkab bo'lgan. Da'vogar 7 yil kutgan. Navbat kelgach, alohida marosimlar o'tkazilib, ritsarlik qasamyodini bajargach, ritsarning ikki yelkasiga qirol qilichini qo'yib ritsarlikka tasdiq etgach, boshiga vino qo'yilgan, so'ngra gerb topshirilgan. Ba'zida, bir gerb uchun ikki ritsar talashgan hollari ham bo'lgan. Masalan, XIV asrda Angliyalik ritsarlar Skroup Grosvenor va Karminou bitta oltin chiziq tortilgan ko'k gerbli qalqonga talashishgan.

XIV asrda boshlab gerb tanlashda adashmaslik. nomutanosiblik yuzasidan traktlar yozila boshlandi. Italiyalik Bortolodi Xuanni «Graf Lukanorning kitobi» asarini yozgan. 1884yilda Londonda 486 gerbli tasvir kitob holida chop etildi. Bugungi kunda G'arbiy Yevropa mamlakatida 350 ta gerbli tasvirlar bizgacha yetib kelgan. Shundan 130 tasi Angliyaniki, 80 tasi Fransiyaniki, 60 tasi Olmoniyaniki, 30 tasi Flaman, 20 tasi Ispan va Italiyaliklarniki. 1828 yildan boshlab gerbshunoslar kongresi bo'lib o'tmoqda. Xozirgacha 17 ta kongres bo'lib o'tgan. 70-80 yillarda xalqaro kollokvium bo'lib o'tgan.

Bugungi kunda har bir mamlakatning davlat ramzi o'z gerbi bor. Unda davlat ramzi, davlatning milliy, siyosiy, iqtisodiy, xususiyatlari hamda davlat tizimi geografik va boshqa belgilar ifodalangan. Gerb davlat muhridan, rasmiy hujjatlarda, diplomatik hujjatlarda, pul va davlat zayomlarida aks ettiriladi. Gerbning barcha xususiyatlari maxsus qonun yoki konstitutsiya bilan rasmiylashtirilgan. Mustaqil O'zbekistonning gerbi XII chaqiriq O'zbekiston Oliy Kengashining X sessiyasida 1992 yil 2 iyulda qabul qilingan.

Tarixni o'rganar ekanmiz, gerblar ajdodlarimiz iqtisodiy va sosial hayotini, turmush madaniyati va san'atini o'rganishida, davlat va sulolalar tarixini oydinlashtirishda xizmat qiluvchi muhim manba ekanligi ma'lum bo'ladi.

5. Mavzu: TARIXIY METROLOGIYA. (4 soat)

Reja

1. Tarixiy Metrologiya fani va uning qadimgi xalqlar madaniyati tarixini o'rganishdagi ahamiyatni.

2. Metrologiya fanini vujudga kelishi va rivojlanishi.
3. Qadimgi Sharq va Yevropadagi o'lchov birliklari.
5. O'zbekistondagi qadimgi o'lchov birliklari.

ADABIYOTLAR:

1. I.A.Karimov. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q». T. «Sharq» 1998.
2. Каменсева Е.И., Устюгов Н.В. Русская метрология. М.1975г.
3. Rustamov M.T “Yordamchi tarix fanlari” Metrologiya (Maxsus kurs) T.1998.
4. Turdiev M. “Yetti o'lchab bir kes” T. “O'zbekiston” 1974 .
5. Введение в специальные исторические дисциплины.М.МГУ 1990
6. Tolibov R. «Yordamchi tarix fanlari asoslari» (Ma'ruzalar matni) Navoiy– 2006 .
7. Хинс В. «Мусульманские меры веса с переводом в метрическую систему» М. 1970.

Metrologiya - o'lcham to'g'risidagi fan. Metrologiya grekcha (metron) - o'lcham va (logos) - fan, ta'limot so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, o'lchov birliklari tarixini o'rganuvchi fan ma'nosini beradi.

Metrologiya yordamchi tarix fani sifatida o'lchov birliklari qachon va qay tariqa paydo bo'lgani, turli o'lcham birliklari sistemalari tashkil topishi va rivojlanishi, mamlakatimizda yashayotgan turli xalqlar orasida qo'llanib kelinayotgan o'lchov birliklari, qadam o'lchov birliklarini hozirgi metrik sistema o'lchov birliklari bilan taqqoslab tartib - qoidalari bilan tanishtiradi.

Metrologiyaning nazariy, xususan amaliy ahamiyati katta. O'lchov birliklari va o'lchov sistemalari madaniyat tarixining tarkibiy qismidir. Ular yordamida muayyan davlat va xalqning ma'lum tarixiy davrdagi moddiy ishlab chiqarish darajasini aniqlash, ilmiy va amaliy bilimlarning rivojlanish yo'llarini o'rganish mumkin.

Qadimgi Sharq va Yevropadagi o'lchov birliklari.

O'lchov birliklari qadim zamonlardan beri mavjud bo' lib, ularni xo'jalikda, savdo - sotiqda, qurilish ishlarida doimo foydalanib kelgan. Birliklarni hisoblash asboblari dastlab insonning qo'li va oyog'i bo'lgan, masalan, qadam, qarich va hakoza. Shu taxlidda uzunlik, buyum o'lchovlari, masofa o'lchangan. Bu birliklardan hozirgacha foydalanib

kelayapmiz. Bir kunlik yo'l, bir o'q otim, bir qop, bir kosa, bir tegirmon va hokazo birliklari keyinchalik paydo bo'lgan. Har bir xalq tomonidan qabul qilingan birliklar nomi ham turlicha, umuman birliklarning o'zihamjuda ko'p bo'lgan. Nomi va mazmuni bir xil bo'lgan birliklar ko'pchilik mamlakatlarda ishlatilishiga qaramay, ularning qiymatlari, mazkur mamlakatlarda turlicha butun dunyoga bir xil birliklr qabul qilish taklif qilishadi.

Olimlar asrlar davomida o'zgarmaydigan birliklar - «Etalonlar» tanlashni taklif qilganlar, masalan, X. Gyugens 1664 yilli bir sekundda bir marta tebranuvchi mayatnik uzunligini uzunlik birligi qilib olishni taklif qiladi. Kilogramm 1970 yillarda qabul qilingan. Metr etaloni 1799 yilli yasaladi. Bir metr uchun Yer merediani chorak qismining o'n millionlab bir bo'lagi qabul qilingan, lekin Yer merediani qayta o'lchanganida metr etaloni o'zgartirishga to'g'ri keladi. Shuning uchun 1799 yili yasalgan etalon xalqaro etalon deb qabul qilingan.

Vaqt birligi tabiatdan olingan, lekin soat, minut va sekund 60 raqam bilan ifodalanishiga sabab qadimiy Vavillonda oltmishlik hisoblash sistemasi (Bizda o'nlik sistema) bo'lgan, shuning uchun bir soat 60 minut qilib qabul qilingan.

Har bir o'lchov birligi o'zining uzoq tarixiga ega. O'lchov birliklari mavjud bo'lmagan davrlarda odamlar o'z ehtiyojlaridan kelib chiqib, biror narsaning miqdorini o'lchashda ulardan foydalanganlar. Ilgari inson tana a'zolari ham o'lchov vositasi sifatida qo'llanilgan. Bizgacha etib kelgan yozma yodgorliklarda ular o'z ifodasini topib, turli davrlarda xar xil yuritilgan. Asosiysi, o'lchovlarni hamma ham ishлата olishini hisobga olgan holda joriy etishgan. Masalan, ularni ishlatish uchun barmoq, qo'l, qadam, ko'z, quloq, bo'g'in, chaqirim, qo'sh, tegirmon, mo'ndi, tirsak, tosh va boshqa narsalar asos qilib olingan.

1918 yil – dunyoda metrik tizim joriy qilingunga qadar O'rta Osiyo mamlakatlarida quyidagi o'lchov birliklar bo'lgan. Chunonchi, marhala, farsah (farsang), tosh yig'och tanob, botmon, pud, qadoq, barmoq, chorak, quloq, tutam, enli, qarich, qadam, manzil, gaz, cho'zim, mina, misqol, nima, nimata, paysa, payt, pina, shar'i ashrafiy, shohruxiy, man, shibir (farich), po'ta, sotix, chilla, talant, tassuj, turmusa, uqiya, unsiya, ziro, suyam, aqirim, paqir, miri, dahsar, nimcha, shair, etmay, dona va boshqalar.har xil qiymatlarni ifodalovchi bu o'lchov birliklari qadimdan xalqlarimiz o'rtasida turli qiymatga ega bo'lgan o'lchov vositasi sifatida xizmat qilib kelgan. Jumladan, badiiy va tarixiy kitoblarni o'qiganimizda ba'zi buyuk shoir va allomalarimizning o'sha davrda

qo'llanilgan o'lchov birliklariga oid notanish so'zlarga duch kelamiz.

Masalan, Abu Rayxon Beruniy "Qonuni ma'sudiy" kitobida o'zining yasagan katta globusi haqida yozib, "diametri 10 cho'zim bo'lgan Er kurrasining yarmini ishladim, uning sirtida kenglik va uzunliklarni chizib qo'ydim" deb aytgan edi. Unda 1 "cho'zim" qancha uzunlikka teng degan savol tug'ilishi tabiiy. 1 cho'zim – 0,5; 0,6 metrdir. U holda 10 cho'zim – 5-6 metr bo'ladi. Beruniy diametri 5-6 metrlik yarimta globusni yaratgan.

Abu ali ibn sinoning "Tib qonunlari" asarida dirham, davraq, misqol, ritl (yoki ratl) kabi o'nlab o'lchov birliklari ishlatiladi.

Yoki so'z mulkining sultoni Alisher Navoiyning 4 tomli izohli lug'atida "qari" so'zi ko'p ishlatilgan, ya'ni bir qari barmoq uchidan tirsakkacha bo'lgan o'lchov birligi deb berilgan.

1 qari qo'l uchidan tirsakkacha masofa bo'lib, 6 tutamga tengdir, 1 tutam esa 4 enlikka, 1 enlik esa 6 arpa donasining bo'ylamasiga tengdir.

Bobur davrida ishlatilgan ziro atama o'lchov birligi 75 santimetrغا teng bo'lib, Sharq mamlakatlarida keng qo'llanilgan. Ba'zan ziro o'lchov birligi ishlatilishiga farab har xil qiymatga ham ega bo'lgan. Forsiylarning gaziga, turkiylarning esa qarichiga to'g'ri keladi. O'rtacha qiymati 54,04 santimetr deb qabul qilingan.hozirgi vaqtda 1 ziro 1 gaz bo'lsa, turkiyda shu kecha kunduzda 65 santimetrغا teng.

Sharq mamlakatlarida ishlatilgan o'lchov birliklar:

1 Marhala 25-30 km ga teng.

1 Sotix – maydon o'lchovi bo'lib, 10X10q100 metr kvadratga teng

1 Botmon – 78 pudga yoki 128 kg ga teng.

1 Qarich – bosh barmoq bilan jimjimaloqning barmoq yoyilmasiga teng, ya'ni 19-20 sm.

1 Enlik – bir barmoq eniga teng (18-20mm) yoki

6 arpadonasining bo'lamasiga teng.

1 Farsah (yoki farsang) – masofa o'lchov birligi, 6 km ga teng.

1 Yig'och – masofa o'lchov birligi, 5985 metr. Ba'zi joylarda 8-9 km ga teng.

1 Tanob – maydon o'lchovi. Turli joylarda turlicha.

1 gektarining 1G`6 dan to yarim gektarigacha bo'lgan.

1 Pud – 16 kg.

1 Isbat (barmoq) – 2 – 2,5 sm.

1 Qadoq – 409,5 garmmm.

1 Chorak – 250 gramm.

1 Tutam – 9 santimetr.
 1 Qadam – 63-71 santimetr ga teng uzunlik o'lchovi.
 1 Shair – 1 misqolga teng. 1 misqol asosan 4,25 garmm, ba'zan 4,50 yoki 4,64 gram deb ham olingan.
 1 Quloch – ikki qo'lning o'rta barmoq uchlari orasidagi masofaga teng. Quloch Buxoroda – 142 sm, Farg'onada – 167 sm ga teng.
 1 Arshin- 1 qadamga teng.
 1 Tosh (farsax) – Sharq mamlakatlarida keng qo'llanilgan bo'lib, 9-12 ming qadam yoki 6-8 km ga teng bo'lgan masofa.
 1 Chaqirim – 1006 metr ga teng.
 1 Gaz – 0,71 metr ga teng o'lchov birligi.
 1 Paxsa – 60 sm ga teng.
 1 Qo'sh (Suv) – Ho'kiz bilan bir kunda haydalgan erni sug'orish uchun ketgan suvga teng deb olingan.
 1 Tegirmon – Tegirmon toshini aylantiradigan miqdordagi ariq suviga teng.
 1 Paysa – 50 garmmga teng.
 1 Paqir – 2 tiyinlik chaqa pul.
 1 Miri – besh tiyinlik chaqa pul.
 1 Tanga – Buxoro amirligida 15 tiyinga, Qo'qon xonligida 20 tiyinga teng bo'lgan kumush pul.
 1 So'lkavoy – 1 so'mlik tanga.
 1 Sha'ira (rapa doni) – 0, 059 garmm.
 1 Habba – 0,059 – 0,071 gramm.
 Demak, Sharq mamlakatlarida turli davrlarda ishlatilgan o'lchov birliklari xalqimiz qadriyatlarini anglashda ko'mak beradi.

Noaniq o'lchov birliklari.

Aniq uzunlik o'lchov birliklaridan tashqari noaniq uzunlik o'lchov birliklari ham bo'lgan.

Gazvor - kamondan otilgan o'qning otilgan joyidan borib tushgan yerigacha bo'lgan masofaga teng. Bu gazvor taxminan 60-70 m.ga to'g'ri keladi.

Bir kunlik piyoda yo'l o'rtacha hisobda ko'pi bilan 20-25 kin.ni tashkil etadi.

O'rta Osiyoda juda qadimdan ma'lum bo'lgan o'lchov birliklaridan biri yuza o'lchov birliklaridir.

Qadim zamonlardan boshlab yuza qo'shlik (juftgaz) jarib, quloch, tanob, gaz, chorak o'lchov birliklari bilan hisoblab kelingan.

Bir kushlik yer qo'sh ho'kiz bilan bir mavsum davoinida haydaladigan ekin maydoniga teng. Taxminan 9 ta desyatina keladi. Xalq orasida uni **juftgaz** deb atashgan.

Jarib deb yuzaga 3609 kvadrat tirsak keiadigan ekin maydoniga aytiladi. Odatda u bir tanobga teng XIV-XV asrlarda bir jarib 36000 kv.gaz barovari hisoblangan. 0,37-0,39 ga.

Arqon - bir arqon 15 quloch yerga teng bo'lgan. 15 quloch yerga (teng bo'lgan) tanob hisobiga yurgan. Demak 2 arqon 1 tanobga teng bo'lgan. Tanob so'zi arqon demakdir. U aslida uzunlik o'lchov birligi. Bir tanob, Xivada 60 gazga teng bo'Mgan. Bir gaz esa u yerda 102-104 sm barovari yurgan. Demak, eni yoki bo'yi 61,2-62,4 m.gacha cho'zilgan yer bir tanob hisoblangan.

Vazn o'lchov birliklari. Og'irlik o'lchov birliklari O'rta Osiyoda juda qadimdan ma'lum.

Dirxam - dastlab kumush tangacha berilgan nom bo" lib, keyinchalik og'irlik o'lchov birligi sifatida qo'llanila boshlanadi. U 4 g.ga yaqin og'irlik bo'Mgan. Og'irlik o'lchov birligi sifatida qo'llanilganda 3,1-3,3 g miqdorida hisoblangan.

G'ariboq - har joyda har xil ishlatilgan. O'rtacha hisobda 128 gr atrofida bo'lgan.

Guriv - 0,5 kg.ga to'g'ri keladi. Bir guriv taxminan bir hovuchga barovarlashtirilgan.

Qadoq - 409,512 gr. turli vaqda, turli joylarda har xil ishlatilgan.

Keyinchalik yillarda qadoq zaminida bir qancha kichik og'irlik o'Mchovlari paydo bo'ladi.

Chaksa-13,5 qadoq, yuxcha-7,625 qadoq, elcha-3,63 qadoq

Botmon - 64 chorak = 10 pud = 16 fut

G'arb mamlakatlar o'lchov birliklari:

Angliya o'lchov birligi

Uzunlik o'lchov birliklari:

Dengiz milli = 1,8532 km

Dengiz mili (AKSH) = 1,852

Mil = 8 farlong = 5280 fut = 1,6093m

Farlong = 10 cheyn = 201,168 m

Rod (pol, perch) = 5,5 yard = 5,0292

Yard-3fut = 91,44

Put = 3xend q 12 dyum = 30,48 sm

Yuza o'lchov birliklari:

Kvadrat mil = 640 akr = 259 m

Akr = 4 rud = 0,4047 ga

Rud = 40 kv. rod = 0,10117 ga

Kv. kod (pol, perch) = 30 kv. yard = 25, 293 m³

Kv. yard = 9 kv fut = 0,83613 m³

Kv. fut - 144 kv. dyuym = 929, 03 sm³

Kv. dyuym q 6,4516 sm³

Dorihona va zargarlik o'lchov birliklari;

Funt = 12 unsiya = 5760 gran = 373,242 g

Unsiya = 8 draxma = 31,1035 g

Draxma = 2 penniveyt = 3 okrupul = 3,8888 g

Skrupul = 20 gran l,5552g

Amerika Qo'shma Shtatlari.

Angliya metrik sistemasi (ba'zan o'zgargan holda) va metrik O'lchov sistemasi ishlatiladi.

Dyuym = 2,54 sm

Fut = 12 dyuym = 30,48sm

Yard = 3fut= 91,44 sm

Rod (pol, perch) = 5,5yard = 5,03 m

Cheyn = 4 rod = 20,2 m

Cheyn (injenerlikda) = 100 fut = 30,48 m

Ferlong = IR cheyn = 201,17 m

Mil = 8 farlong= 1,609 km

Dengiz mili = 1,853 km

Yuza o'lchov birliklari;

Kv. dyum - 6,45 kv.sm

Kv.fut=144 kv. dyuym = 929,03 kv.sm

Kv. yard = 9 kv. fut = 8361 kv. sm

Kv rod = 25,29 kv.m

Rud = 40kv.rod = 10,12 a

Akr = 40,47 ga

Seksiya = 640 akr = 259 ga

Hajm o'lchov birligi:

Kub dyuym = 16,387 kub.sm

Bord fut = 144 kub dyuym = 2360 kub.sm

Kub fut = 1728 kub. dyuym = 28317 kub.sm

Kub.yard = 27 kub.fut = 0,7646 kub.m

Kub. fason = 8 kub.yard = 6,118 kub.m

Massa o'lchov birliklari:

Gran = 64,8 mg

Draxma = 1,77 g

Unsiya = 16 draxma = 28,35 g

Funt = 16 unsiya = 453,59 g

Ston = 14 funt = 6,35kg

Kvarter = 25 funt = 11,34 kg

Sentner = 100 funt = 45,36 kg

Tonna = 20 sentner = 907,2 kg

Milyer = 1 m tonna

Suyuqliklar uchun ;

Gill = 118 ml

Pinta = 4 gill = 0,47 l

Kvarta = 2 pinna = 0,95 l

Gallon = 4 kvarta = 3,785 l

Barrel = 42 gallon = 158,98 l

Sonlar

Billion = Milliard * 10

Trillion = billion * 10

1. I.A.Karimov. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q». T. «Sharq» 1998 .
2. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. T. "Sharq"2001 yil.
3. Введение в специальные исторические дисциплины.М.МГУ 1990 г.
4. Бородин О.Р. Развитие географических мысли. Культура Византии IV -половины XII в. М. 1984 год.
5. Магидович И.П. Очерки по истории географических открытий. Т. 1-5 М. 1982 год.
6. Постиков А.В. Развитие картографии и вопросы использования старых карт. М. 1985 год.
7. Хасанов Х.Х. Географическое наследия учёных Средней Азии. Т. «Фан» 1964 год.

Kartografiya – bu barcha turdagi (chizilgan yoki tasvirga tushirilgan) xaritalarning tayyorlanishi, ulardan foydalanish usullari, xarita tayyorlash san'atini o'rganuvchi fan hisoblanadi. Kartografiyani o'rganishning ikkita yirik maktablari mavjud:

1. Geografik kartalar (geosistemani tadqiq qiladi va o'rganadi).
2. Injener kartogarfiya (kartalarni tayyorlanish va ishlab chiqarilishini o'rganadi)

Kartalar axborot manbai bo'lib ham xizmat qiladi. Ya'ni kartadagi ma'lumotlarni aniqlagan holda unda tasvirlangan shartli belgilar asosida ko'pgina ma'lumotlarga ega bo'lish tabiiy.

Geografik kartalar tarixiy manbalar sifatida muhim ahamiyatga ega, chunki, unda geografik, tarixiy faktlar, tabiatdagi o'zgarishlar, jamiyat sosial - iqtisodiy rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar sifatida barcha o'zgarishlar tarixni to'g'ri yoritishda yordam beradi.

Kartografiya tarixi. 1) Qadimgi Odamlar ilk xaritalarni toshlarga, daraxt po'stloqlariga chizishgan. (Ularda ketgan yo'nalishlari, ketgan masofalari ko'rsatilgan). 2) Earmizdan avvlgi X asrda uzunlik va burchaklarni hisoblovchi ilk geodezik uskunalar paydo bo'lgan. 3) Eramizdan avvalgi III asrlarda uzunlik va kenglikni hisoblovchi ilk astronomik asboblarni yaratilgan hamda kartalar ilk bor qog'ozga tasvirlangan.4) Eramizning XIII asrlarida xaritalardan sayohat va

sug'orishda foydalanishgan. 5) XV asrlarda xaritalar davlat va harbiy xavfsizligida foydalanilgan. 6) XVIII asrning o'rtalarida xaritalardan bilimlar manbai sifatida foydalanilgan. 7) XIX asrning ikkinchi yarmida xaritalar yaratishda aerofotoapparlardan, aerokosmik suratlardan foydalanilgan, qolaversa, fotoximik va fotonusxa ko'chirish apparatlaridan foydalanilgan. 8) XX asrning ikkinchi yarmida xaritalar yaratishning fotogrametrik usullari yaratilib, u orqali atrof-muhit to'laligicha tasvirlangan. 9) Ilk bor Elektron geodezik apparatlar yaratildi va endilikda xaritalar raqamli va elektron texnologiyalarda tasvirlandi. 10) XX asr oxiri XXI asr boshlarida xaritalar kompyuter texnika vositalari yordamida yaratilmoqda va ulardan xavfsizlik, boshqaruvda keng qo'llanilmoqda.

Xaritalar boshqa shunga o'xshash tasvirlardan quyidagi jihatldari bilan farqlanadi:

1. xaritalarda shartli belgilar mavjud.
2. xaritalarda koordinata chiziqlari mavjud.
3. xaritalarda masshtab (kichraytirib ko'rsatish) mavjud.
4. shartli belgilar orqali releflar, magistrallar, er usti va er osti qazilma boyliklari, davlat chegaralari, temir yo'llar, kanallar va boshqalar ko'rsatiladi.

Xaritalar globus, relfli, blok diagarammali, oy xaritasi, yulduzlar xaritalari, harbiy xaritalar va boshqa shakllarda ham bo'lishi mumkin.

Kartografiya semiotikasi – shartli belgilar sistemasini o'rganadi.

O'rta asrlarda yil to'g'risidagi tasavvurlar aniq bo'lmagan, shu sabab kartalarda to'g'ri, parallel, meridian - perpendikulyar chiziqlar, radiuslar turli shaklda tasavvur qilingan.

Kartalarni tarixni o'rganish XI asrdan boshlangan. Fransuz injeneri - geograf Barbye Bokans kartalarga tarixiy talqin bergan. Hozir 15 tomlik **katola** nomi bilan ataluvchi kartalar Britaniya muzeyida saqlanadi. Golland izlanuvchisi K.Kuman hisobida 680 atlas, 1570-1880 yiligacha davr kartalari Niderlandiyada saqlanadi. A.Nordenjeld va K. Millerni rim - yo'l kartalari (IX - XII asrlar), Portugaliyada 1200-1500 yillar Monastr kartalari saqlanadi.

Qadimiy meros. Strabon (I er. av) Klavdiy Ptolomey (er av II) asarlarida shar shaklida berilgan. Uchga bo'lishgan. Er. avv. II asrda astronom Gipparx aylanani 360 gradus bo'lgan karta yaratgan. Lekin eng qadimgi karta bu Rim yo'llari kartalaridir. Bibliya bo'yicha kartada yer aylana, disk shaklida va to'rtburchak tasavvurida berilgan. Albatta,

okean bilan chegaralangan, o'ralgan tartibda osmon ikki qavat xudo va farishtalar tasviri tushirilgan. Quyoshni xudo yashiradi keyin chiqaradi. Yer markazida Iyersalim bosh shahar joylashgan. Sharqda tog'lar va to'rt daryo Tigr, Yefrat, Geon, Fison tasviri tushirilgan.

Bizgacha 1100 ta ruhoniylar kartasi dunyo bo'yicha saqlanib qolgan - shulardan 600 tasi XIII asrda yasalgan. Dengiz kartalari pergamentdan yasalgan va svagavta (karta) deb atalgan. Keyinchalik kartaga butun daryo, ko'llar, shaharlar, davlatlar kiritiladi. Dunyo kartalari deb atalmish kartalar 1275, 1339, 1367 yillarda yaratilgan Venesiyadagi aka-ukalar Pisigano, Martin Behayma va boshqalarini kartalari shular jumlasidandir. Arablarda karta aniq haqiqatga yaqin tarzda tasvirlangan. Masalan: XII asrda Al Idrisi Sisiliya qiroli Rodjer II buyrug'i bilan 1154 yili 1 aylana, 1 to'g'ri burchakli 70 betli dunyo kartasini chizgan. Shunga o'xshagan kartalar hozir Sankt - Peterburgda ham saqlanmoqda.

Kartografiya XIV - XV asrlarda. O'rta asrlarda tovar almashish, savdoning jonlanishi, shaharlarni vujudga kelishiga kartalarga bo'lgan ehtiyojni tezlashtirgan va u ancha takomilashgan. Ayniqsa, Hind okeani bilan o'ralgan arablar kartasi, O'rta yer dengizi bilan o'ralgan Yevropa kartasi ko'plab saqlanib qolgan ya'ni (portplan) deb atalgan. Keyinchalik Italiya, Portugal, Ispan kartasi bilan dengizda ish yuritilgan. Bugunda Sankt - Peterburgda ikkita portplan saqlanmoqda.

Buyuk geografik kashfiyotlar davrida karta tuzib sotish yo'lga qo'yiladi. Vasko de Gama Indiya safarida 1497-1499 italyan, portugalliyalik karta bilan sayohat qilgan. Kolumbni o'zi tuzgan kartasi ham saqlangan. Nemis Martin Vldzeyemyuller globus va dunyo kartasi avtorisi sifatida Atlantika okeanini kartaga kiritishadi. Kartani Amerika Vispuchi nomi bilan bog'lashadi.

1538 yili Gerard Markator Amerikani ikkiga bo'ladi. Shimoliy Amerika va Janubiy Amerika qit'asi.

1522 yili ispaniyalik Nuno Garseya de Torenio Magelan sayohati yo'lini kartaga kiritib, Filipinni orollarini kartaga kiritadi.

1569 yili Gerard Markator katta dunyo xaritasini tuzadi. 1503 yili esa ispaniya qiroli yangi dengiz kartalarini tuzishga farmon beradi. Lekin harbiy dengiz xaritasi bizgacha yetib kelmagan. Sababi harbiy xarita sifatida sir saqlangan yoki ma'lum sabablarga ko'ra yo'qotib yuborilgan.

XVI asrning 40 yillarida portugaliyaliklar kartasini fransuzlar takomillashtiradi (Nikola Dyufin). Shu davrda harbiy xarita tuzishga qiziqish kuchayadi. Ayni paytda davlatlar kartasini tuzish boshlanadi. Sababi davlatlar o'rtasida urushlar ularning sir asrordan ogoh bo'lishlarini

talab qilar edi. Shu davrdan boshlab quruqlikdagi davlatlar xaritasini tuzish boshlandi. Quruqlikdagi davlatlar kartasini tuzishda Gererd Markator 1512-1594, Abram Orteliya 1527-1598 yillarda tuzgan xaritalari 'diqqatga sazovor bo'ldi. Ayniqsa Markatorning 1538 yildagi dunyo kartasi deb nom olgan Yevropa kartasi unga shon - shuhrat keltirgan.

Jumladan, yana Lukas Vans Vagenerrring «Dengiz oynasi» nomini olgan dengiz kartasi muhim ahamiyat kasb etdi. Lekin yuqoridagi kartalarni albatta texnik jihatdan kamchiliklari ko'p bo'lgan. Karta tuzishda kompas, shunur, aylana, o'lchov kabi primitiv o'lchov asboblari to'g'ri o'lchashga imkon bermagan. XVIII asrga kelib uglometr yaratilgan. Unga ko'ra kenglik va uzunlik o'lchangan.

XVIII asrning boshlariga kelib karta tuzish bilan bog'lik ishlar fan - texnikaning rivojlanishi natijasiga ko'ra manafakturalar tuzishga olib keladi.

Markaziy Osiyo xalqlari tarixidan ham kartalar tuzish, globuslar yaratish, Yevropa mamlakatlaridan oldin boshlangan desa xato bo'lmaydi. Abu Rayhon Beruniy (973-1042 y) birinchi marta dunyo globusini yaratganligi to'g'risida tarixiy manbalar guvohlik beradi. Shuningdek, ibn Havqalning X asrdagi Movarounnahr kartasi hozirgacha ham ahamiyatini yuqotgani yo'q. Kartada:

1. Hisor, Turkiston va Zarafshon tog'lari
2. Iskandar ko'l.
3. Zarafshon daryosi 6. Amudaryo
4. Qorako'l 7. Sirdaryo
5. Orol dengizi

kiritilgan bo" lib dunyoning markazi sifatida bular Makkayu Madinaga qaratilgan edi. Shuningdek, Mahmud Qoshg'ariy (1029 yil) ning «Devoni lug'oti turk» kitobida o'zi tuzgan dunyo xaritasini doira shaklidagi tasvirini iiova qiladi. Maxmud Koshgariy Qoraxoniylar davlatining rivoj topgan davrida yashadi. XI asrda toj - taxt uchun kurashlar davriga qaramay Mahmud Qoshg'ariy turkiy kabilalar orasida kup yurib o'zi tuzgan kartaga mamlakat, shahar, qishloq, tog', cho'l, dovon, dengiz, ko'l, daryo va hokazolarning nomlarini kiritadi. Karta asosan hozirgi sharqiy yarim sharga to'g'ri keladi. Bu haqida Mahmud Qoshg'ariyning o'zi shunday yozgan «Rumdan Mochingacha bo'lgan... shaharlar o'rnini aniqlash maqsadida ularning hammasini yer shaklidagi doirada ko'rsatdim» deydi. Kartaning diametri o'zbekcha bosma nushasida 18 sm.

Doira chizig'i to'q yashil bo'yoqda (o'zbekcha qora) ko'rsatilganligi Yer yuzini hamma tarafdin okeanlar o'rab olganligini bildiradi. Karta

o'rta asr Sharq xaritalarga qisman o'xshasada, lekin ko'p elementlarning tasvirlanishi va mazmuni ulardan ancha farq qiladi :

A) Kartada doiraning, ya'ni Yer yuzining markazi O'rta Osiyoga to'g'rilangan, aniqrog'i - Issiqko'l bilan Bolasog'un oralig'idir (o'rta asr arab kartalarida Yer yuzining markazi - Makka va Madina).

B) O'rta Osiyo va Qashqar xalqlarining dunyo to'g'risidagi qadimdan mavjud bo'lgan tarixiy va an'anaviy (kun chiqish - old tomon) tushunchalariga asoslanib, Mahmud Qashqariy Sharq tomonni kartaning yuqori qismiga joylashtirilgan.

Karta o'sha davrdagi joy nomlarini qanday nomlaganligi haqida bizga ma'lumot beradi. Bu esa o'sha davr XI asr tarixini o'rganishda qimmatli manba hisoblanadi. Masalan : Shosh (Toshkent), Samarqand, Xo'jand, Marg'ilon , Kuba (Quva), Koson, Qashg'ar, Yorkent tarixiy viloyatlarning mavjudligini isbotlaydi va hokazo.

Shuningdek, daryolar Jayhun (Amudaryo), Xavorazm (Xorazm), Bahri Obiskun (Kasbiy dengizi), Rus, Sakoliba (Slavyanlar), Tarozi (Jambul), Mochin (Xitoy), Javarko (Yaponiya) kabi qadimiy nomlari haqida ham ma'lumot beradi. Lekin kartada kamchiliklar ham mavjud. Chunonchi, Amudaryo va Sirdaryoni yanglishib Kasbiy dengiziga qo'yiladi, deb ko'rsatilgan. Bu noto'g'ri. Umuman, M.Qashg'ariyning XI asrda tuzilgan bu kartasi tariximizni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

H I K M A T L I S O ' Z L A R

- 1. “Eng aniq fanlardan biri - donishmandlik” – Aristotel***
- 2. “Pashshadan fil yasama” – Lukian***
- 3. “Suqrot – do'st, lekin eng yaqin do'stim - haqiqatdir”- Aflotun.***
- 4. “Davlat – mening o'zim” – Lyudovik XIV.***
- 5. “Hamma yaralarni vaqt davolaydi” – Menandr***
- 6. “Aflotun – dust, lekin haqiqat undan-da ustun” – Aristotel.***
- 7. “Men hech narsa bilmasligimni bilaman” – Suqrot.***
- 8. “Haqiqiy do'st baxtsizlikda bilinadi” – Ezop.***
- 9. “Pul hidlanmaydi ” – Vespasian.***
- 10. “Hechdan ko'ra kech yaxshi” – Tit Liviy.***

11. *“Tabiatni o’zgartirish qiyin” – Seneka.*
12. *“Keldim, ko’rdim, g’alaba qildim” – Yuliy Sezar*
13. *“Chehra –qalb oynasidir” – Sitseron.*
14. *“O’limdan ko’ra uning qo’rqinchi yomon” – Jordano Bruno.*
15. *“Bilim – kuch, kuch esa - bilimdir” – Frensis Bekon.*
16. *“Agarda Xudo bo’lmaganda edi, uni allaqachon o’ylab topgan bo’lar edilar” – Volter.*
17. *“Men o’ylayapman, demak men mavjudman” – Rene Dekart.*
18. *“Inson insonga bo’ridir”*

Mustaqil o qish uchun.

Dunyoning 7 mo’jizasi.

Birinchi Misr ehromi. a) Misr fir'avini Joser dahmasi. Uning balandligi 60 metr.b) mil. Aw 2800 yillarda Misr davlatini boshqargan Xeops ehromi. Geradotning yozishicha u 30 yil mobaynida qurilgan. Balandligi 147 metr, aylanasi 1 km, uning og'irligi 2 dan 30 tonnagacha bo'lgan 2 mln 300 ming bona tosh ishlatilgan. s) Fir'avn Xofraga atab qizil granitidan ishlangan ehrom va Sfinks nomi bilan mashhur odam boshli ulkang haykal. (qadimgi dunyo tarixi, 1 torn, 152 - 153 b).

Ikkinchisi Artemeda ibodatxonasi. U Yefos shahrida Artemida sha'niga bunyod qilingan. Uning bo'yi 110 eni 55 metr bo'Mgan. 120 yil davomida qurilgan. 356 yil Gerostrat degan kimsa unga o't qo'yadi va yog'och qismi yonib ketadi. So'ngra qayta tiklanadi. Ibodatxonaning me'mori Xersefrondir.

Uchinchisi Kichik Osiyodagi Galikarnas dahmasi, dunyoga mashhur Mavsall maqbarasidir. Uning kengligi 66, uzunligi 77, balandligi 46 metr bo'lib, 3 bo'Mimdan iborat.

Turtinchidan Koloss haykali bo'lib, balandligi 35 metr, bronzadan yasalgan. 12 yilda qurilgan. Eramizdan avvalgi 4 asrda Gelios sharafiga

o'rnatilgan. Haykalni Xores ishlagan.

Bcshinchisi - Iskandar minorasi. Uning bo'yi 120 metr, 3 qavatli bolgan. Unga milloddan avvalgi 332 yilda asos solingan. Nil daryosining quyilish joyida bunyod etilgan. Hozir 30 metrcha qismi saqlanib qolgan. Haykaltarosh Sostrad Knedskiy 280 yilda qurib bitkazgan.

Oltinchisi - Zevs haykali. Uning uzunligi 64 metr, eni 28 metr, xonaning ichki balandligi 20 metr. Haykalning boshi shiftga tegib turadi. U pushtirang fil suyagidan yasaliib, yonib turgan kiyimlari oltin barglardan ishlangan. Haykaltaroshi Fidiydir.

Yettinchi Bobilning muallaq bog'lari. Frot va Dajla daryolari oralig'idagi Bobil (Vavilon) shahrida joylashgan bu bog'lar 4 qavatli bo'lib, Bobil o'z xotini sharafiga qurilgan. Qavatdan - qavatga keng zinalar orqali chiqilgan. Har qavatga unumli tuproq yotqizilib, nodir va ko'rkam daraxtlar va gullar o'tqazilgan. Shuningdek, Amir Abror Rahmon - 1785 yili Ispaniyada qurdirgan. Kordava masjidi (unda 30 ming kishi bir vaqtda bemalol namoz uqiy olgan, uning 1013 ta tosh ustini bo'lgan. Istambuldagi Ko'kmaschit, Qoxiradagi al - Hazar, Damashqdagi Umayyod, Dehlidagi Jome, Kalkuttadagi uch qavatli marmar masjidi, Samarqanddagi Bibixonim masjidi xam me'morchilik yodgorliklari sifatida betakror, buyuk qasrlardir.